

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AJINIYAZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAR PEDAGOGIKA INSITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK:

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
“O‘ZBEK ADABIYOT KAFEDRASI”**

REIMBOYEVA LOLA DAVRONBEKOVNA

**“ABDULLA QODIRIY IJODI O‘ZBEK VA JAHON
ADABIYOTSHUNOSLIGIDA”**

Mutaxassislik: 5A111201-O‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Davlat attestatsiya komissiyasida
Himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

p.f.n. M.Allamberganova

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. K.Quramboev

NUKUS – 2019

MUNDARIJA

UMUMIY ISH TAVSIFI	
Kirish. MURAKKAB TAQDIRLI ADIB (KIRISH O'RNIDA)	
I BOB. ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGANISHNING YANGI BOSQICHI	
1.fasl. Matyoqub Qo'shjonov tadqiqotlarida Abdulla Qodiriy ijodi talqini. . .	
2. fasl. Yozuvchi ijodining yangi talqinlari (Bahodir Karim tadqiqotlari misolida)	
II BOB. ABDULLA QODIRIY IJODINING ADABIY ALOQALARI VA TA'SIRLAR YO'NALISHIDA O'RGANISH MASALALARI	
1.fasl. Abdulla Qodiriy an'anlari turkman ramonchiligida	
2. fasl. Yozuvchi ijodining rus va qardosh xalqlar adabiyoti bilan aloqadorlikda o'rganilishi.	
III BOB. ABDULLA QODIRIY VA JAHON ADABIYOTI	
1-fasl. Jahon adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodi haqida	
2-fasl. Yozuvchi romanlar xorijiy adabiyotshunoslari nazarida	
XULOSA	
ADABIYOTLAR RO'YHATI	

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzusining dolzarbligi; A.Qodiriy o'zbek romanchiligining yirik vakili, jahon adabiyoti romanchiligida ham o'rni bor yozuvchilardan biridir. Shuning uchun uning ijodini o'rganish hamma zamonlarda ham adabiyotshunoslikning kun tartibida turgan masalalardan biridir. A.Qodiriy ijodini o'rganish o'tgan asrning 20-30-yillaridan boshlangan edi. Xususan, adibning, "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari yuzasidan o'sha yillardayoq qizg'in bahslar davom etdi. S.Husayn, V.Mahmud, O.Sharafiddinov keyinroq Oybek tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligidagi qodiriyshunoslikning dastlabki namunalari edi. 50-70-yillarda o'zbek qodiriyshunosligi I.Sultonov, M.Qo'shjonov, I.Mirzayev, A.Aliyev kabi A.Qodiriy ijodini maxsus o'rganuvchi olimlar bilan to'ldirildi. U.Normatov, A.Rasulov, B.Karimov, kabi olimlar qodiriyshunoslikka so'nggi yillarda hissa qo'shgan tadqiqotchilardandir.

Biz ham mazkur magistrlik dissertatsiyamizda ustoz-olimlar an'anlarini davom ettirishni, yozuvchi ijodining istiqloq yillarida o'rganilishi, jumladan, yozuvchi romanlarining chet ellarda o'rganilishi masalalarini taftish etishni nazarda tutdik. Bizning fikrimizcha, A.Qodiriyda iste'dodli yozuvchi o'rganish, haqidagi tadqiqotlarga munosabat bildirish dolzarb doimo bo'lib turaveradi, ahamiyati hech qachon yo'qolmaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti; Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga obyekti sifatida A.Qodiriy ijodini tanladik. Diqqat markazimizga yozuvchining romanlari, bu asarlari to'g'risida o'zbek va jahon adabiyotshunosligida bildirgan fikrlar, maqolalar, kitoblari tadqiq qilish turadi. O'zbek qodiriyshunoslikning ilk bosqichlari, ulardagi yutuqlar va kamchiliklari, umumlashtirishda manbalarga tayandik. O'zbek va jahon qodiriyshunosligi ilmiy tadqiqotlarga munosabat bildirishga urindik.

Tadqiqot ob'ekti;

Yozuvchi ijodi to'g'risida alohida tadqiqot olib borgan M.Qo'shjonov, B.Karimov kabi qodiriyshunoslarning kitoblari (M.Qo'shjonov "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati", B.Karimovning "Abdulla Qodiriy hermenevtikasi")ni tahlil qilishga intildik.

Tadqiqot predmeti;

Magistrlk dissertatsiyasidan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek qodiriyshunosligiga istiqloq mafkurasi nuqtai nazaridan yondashish. A.Qodiriy ijodini baholashdagi xilma-xillikni oydinlashtirish, qaysi olim A.Qodiriy ijodini baholashda xolis yondoshgan, to'g'ri xulosa chiqargan. Bosh vazifamiz sho'rolar davridagi qodiriyshunoslik bilan mustaqillik yillaridagi qodiriyshunoslikdagi o'ziga xosliklarni ko'rsatish, M.Qo'shjonov, A.Aliyev, I.Mirzayev, B.Karimov kabi qodiriyshunos olimlarning bu yo'nalishdagi kitoblariga munosabat bildirishdan iboratdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari;

1. Tadqiqotning maqsadlari:

- O'zbek qodiriyshunosligiga bir nazar tashlash uning taraqqiyot yo'lidagi yutuqlari nimalardan, kamchiliklari, nimalardan iborat bo'lgan. O'tgan asrning 20-30-yillardagi qodiriyshunoslikdagi yetakchi tamoyillar nimalardan iborat bo'lganligini izohlash;
- Jahon adabiyotshunosligida A.Qodiriy ijodini o'rganishga bo'lgan xarakterlarga munosabat bildirish, umumiy obzor berish.

2. Tadqiqotning asosiy vazifalari:

- Abdulla Qodiriy ijodi va jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi
- O'zbek qodiriyshunosligidagi mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlar
- Amerika olimlari A.Qodiriy ijodi haqida
- A.Qodiriy romanlarida mafkura masalalari
- A.Qodiriy romanlaridagi milliy kolorit masalalari
- Jahon qodiriyshunosligidagi yetakchi tamoyillar

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Magistrlik dissertatsiyamizda ko'tarilgan asosiy masala A.Qodiriy ijodining o'zbek va jahon adabiyotshunosligida o'rganilish masalalaridan iborat. O'zbek qodiriyshunosligining ilk bosqichi, yozuvchi ijodini baholashdagi biryoqlamaliklar, yutuqlar va kamchiliklarni ko'rsatish, umumlashtirish, shuningdek, jahon adabiyotida A.Qodiriy ijodiga munosabat, baholashdan, mezonlar, chet ellik olimlarning yozuvchi to'g'risidagi tadqiqotlarini o'zbek qodiriyshunoslarining ishlari bilan tipologik o'rganish tadqiqotimizning asosiy masalalaridan biridir. Kelgusida bu yo'nalish A.Qodiriy ijodining dunyo ko'lamida yanada ommalashishiga zamin hozirlashi mumkin.

Ilmiy yangiligi: Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, biz ilk marotaba o'zbek qodiriyshunosligining bosib o'tgan yo'liga tavsif berishga harakat qildik. O'tgan asrning 20-30-yillarida A.Qodiriy ijodini baholashdagi subyektiv qarashlar yozuvchi shaxsini to'g'ridan-to'g'ri asar qahramonlari bilan bog'lash muallifning oddiy xalq hayotini bilmaslikda ayblash kabi fikrlarning asossiz ekanligiga o'z munosabatimizni bildirdik. Bu masalada O.Sharafiddinov, S.Husayn, V.Mahmud kabi olimlarning qarashlari holi olmasligini ko'rsatishga urindilar. Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning nana bir yangiligi shundaki, mustaqillik yillarida qodirishunoslik yanada yuksaldi. M.Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriy – erksizlik qurboni", B.Karimning "Abdulla Qodiriy germenevtikasi" kitoblarining paydo bo'lishi haqiqiy ma'noda qodiriyshunoslikda kashfiyot desak mubolag'a bo'lmas. Biz bu olimlarning shu ikki kitobiga munosabat bildirdik.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab o'zbek adabiyotshunosligida V.Mahmud, O.Sharafiddinov, S.Xusayn sal keyinroq I.Sulton, Oybek, M.Qo'shjonov, A.Aliyev, I.Mirziyoyev kabi olimlar yozuvchi ijodi, romanlari to'g'risida ilmiy tadqiqot ishlari yaratdilar. S.Xusaynning "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani", Oybekning "A.Qodiriyning ijodiy yo'li", V.Mahmudning "Mehrobdan chayon" to'g'risidagi

tadqiqotlarini tilga olish mumkin. Bu kitoblarning deyarli barchasida A.Qodiriy ijodi adabiy portret misolida o'rganilgan. Ko'proq yozuvchining "O'tkan kunlar" romani atrofida, uning yutuqlaridan ko'ra kamchiliklarini ko'rsatish yetakchilik qiladi. A. Qodiriy ijodi mustaqillik yillarida, yangi mezonlar asosida, yangicha baholandi. Bu o'rinda B.Karimning yozuvchi ijodiga bag'ishlangan kitoblari "Abdulla Qodiriy" monografiyasi, "Abdulla Qodiriy germenevtikasi" singari kitoblarini tilga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodik manbalar: Magistrlik dissertatsiyamizni yozishda o'zbek adabiyotshunosligida mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy kitoblardan tanladik. "Adabiyotshunoslikka asoslari", "Adabiyot nazariyasi", "O'zbek adabiy tanqidchiligi", "O'zbek adabiyoti tanqidi antologiyasi" kabi kitoblar ishimizni yozish jarayonida metodik manba vazifasini o'tadi. I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Karimov singari olimlarning zamonaviy o'zbek adabiyoti to'g'risidagi tadqiqotlari ham metodil manba sifatida murojaat etdik.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu tadqiqotimizda roman janrining aytaylik tarixiy roman janriga xos nazariy manbalar berishga harakat qildik. Badiiy to'qimalar yaratishda yozuvchi shaxsiyatining roli, ma'naviy muhitining roman syujetini yaratishdagi ahamiyati, protatip yaratish tajribasi, tip va tipiklashtirish masalalari haqida ham ma'lumot berildiki, bu tushunchalar shu yo'nalishda tadqiqot yaratuvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. A.Qodiriy ijodi, xususan, muallifning romanlarida bu nazariy ma'lumotlarni asoslashga, ilmiy dalilarga to'la material bo'la oladi.

Tadqiqotning tuzilishi:

Magistrlik dissertatsiyamiz kirish va xulosadan tashqari uch bobdan iborat. Har bir bob bir necha fasllarga ajratildi. Aytaylik birinchi bob va ikkinchi boblar ikki faslga, uchinchi bob ham ikki faslga ajratib o'rganilgan. Fasllarning har biri bobning mazmunidan kelib chiqib sarlavhalangan. Tadqiqotimizning oxirida ishni

yo'zish jarayonida foydalangan adabiyotlar ro'yhati berildi. Magistrlik dissertatsiyamizning umumiy hajmi ----- betdan iborat.

MURAKKAB TAQDIRLI ADIB

(Kirish o'rnida)

Zamonaviy o'zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy mana, necha yillarki, xalqimiz qalbidan ardoqlanib kelmoqda. Yozuvchi asarlarining qayta-qayta nashr qilinayotgani, sahnalashtirilib kino lentalariga ko'chirilayotgani adib asarlarining umrboqiyligidan darak beradi.

A.Qodiriy nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti, birinchi navbatda turkiy xalqlar adabiyotida ham katta mavqega ega adiblari sirasiga kiradi. Uning asarlari dunyoning bir necha tillariga o'girilgan va ko'p marotaba nashr etilgan. Yozuvchi ijodini o'rganish masalalari nafaqat o'zbek olimlari balki boshqa xalqlar adabiyotshunosligi tomonidan ham o'rganilayotgani yozuvchi ijodiga bo'lgan qiziqishning bir ko'rinishidir.

A.Qodiriy ijodini o'rganish yozuvchining hayotlik chog'laridan boshlangan. Ayniqsa, bu ilmiy ishlarda A.Qodiriy ijodi, jumladan, uning "O'tkan kunlar" romani xolis baholanmadi. Ramanga siyosiy ayblar qo'yildi. Yozuvchini oddiy xalq hayotini to'g'ri ko'rsata olmaganlikda ayblandi. Mehnatkash xalq hayotidan uzoq yozuvchi, shuning uchun oddiy kambag'al xalq vakillari emas, o'ziga to'q sinfnig vakillari deb hisoblashda davom etdilar. A.Qodiriyga qo'yilgan bu siyosiy ayb ko'p yillar davom etdi va yozuvchi adabiyotdan chetlatilishidan manfaatdor shaxslar ma'lum ma'noda o'z maqsadlariga ham erishdilar.

Demak, qodiriyshunoslik o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 20-30-yillarda boshlangan edi. S. Xusaynning "O'tkan kunlar" haqida" risolasi, O.Sharafiddinov va V. Mahmudovlarning turkum maqolalari, Oybekning "Abdulla Qodiriy ijodiy yo'li" kitobi o'zbek qodiriyshunosligining dastlabki namunalari edi. Garchi, bu tadqiqotlarda A.Qodiriy ijodi, xususan, "O'tkan kunlar" romani bir tomonlama, noxolis baholangan bo'lsada, qodiriyshunoslikning ilk namunalari sifatida ijobiy bahoga munosib desa bo'ladi.

Sho'rolar davrida A.Qodiriy ijodi deyarli o'rganilmadi. Yozuvchi haqida salmoqli asarlar yaratilgani yo'q. Buning sabablari ma'lum edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin qatog'on qurbonlariga munosabat tubdan o'zgardi, ularning nomlari qayta tiklandi. Ijodini o'rganishga keng yo'l ochildi. A.Qodiriy, Cho'lpon, U.Nosir, A.Fitrat kabi qatog'on qurbonlari ijodi adabiyotga qaytdi. Ular asarlarini yangi mafkura, yangi tuzum siyosati negizini keng ko'lamda o'rganila boshladi. Bir so'z bilan aytganda, qodiriyshunoslikning yangi bosqichi boshlandi. Qodiriyshunoslarning yangi avlodi shakllandi deb bemalol aytishimiz mumkin. I.Sulton, M.Qo'shjonov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, I.Mirzayev, A.Aliyev va yana o'nlab Qodiriy ijodi bilan shug'ullanadigan adiblar avlodi yetishdi. M.Qo'shjonovning "A.Qodiriy mahorati", "Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi", "Abdulla Qodiriy" risolasi, A.Aliyevning "Ijod va izlanishlar" kitobi, B.Karimning "Abdulla Qodiriy", "Abdulla Qodiriy germenevtikasi" singari kitoblar o'zbek qodirishunosligida o'ziga xos o'ringa ega tadqiqotlardir.

Shu bilan qardosh xalqlar adabiyotshunosligida ham A.Qodiriy ijodini o'rganish sohasida ham tadqiqotlar mavjud. Bu ishlar ko'proq yozuvchi romanlari adabiy aloqalar aspektida, o'zaro ta'sir yo'nalishida o'rganishadi. Ya'ni Markaziy Osiyo adabiyotlariga, xususan bu adabiyotlarda roman janrining paydo bo'lishida A.Qodiriyning romanlarining ahamiyati yo'nalishida tadqiq qilinadi. masalan, adabiyotshunoshunos K.Quramboyevning Abdulla Qodiriy romanlari Xeder Deryayev romanini solishtirib yaratgan tadqiqoti, turkum maqolalari risolasi Qodiriy ijodini Markaziy Osiyo adabiyotlari bilan solishtirib o'rganishdagi tadqiqotlardan biri desa bo'ladi. Qozoq adabiyotshunosi R.Berdiyev turkman adabiyotshunosi X.Abdullayev, A.Murodov, M.Gurbanzahodov qoraqalpoq adabiyotshunosi J.Norimbetov, A. Kojiboyev va boshqa olimlarning tadqiqotlari va maqolalarida A.Qodiriy ijodi haqida e'tiborli fikrlar aytilgan. Jahon adabiyotida ham A.Qodiriy ijodiga qiziqish katta yozuvchining bir necha romanlari xususan,

“O‘tkan kunlar” yevropa tillariga tarjima qilingani yozuvchi ijodiga qiziqishni kuchaytirib yuborgani ma’lum. Biz bu haqida magistrlik dissertatsiyamizning ikkinchi va uchunchi boblarida maxsus to‘xtalamiz.

Bir so‘z bilan aytganda Abdulla Qodiriy faqat o‘zbek kitobxonlarining diqqatinigina emas, qardosh xalqlar, jahon kitobxonlarining e’tibori qozongan so‘z san’atkorlaridan biridir. Shunday ekan bunday so‘z san’atkori to‘g‘risida tadqiqot yaratish hech qachon dolzarblik xususiyatini yo‘qotmaydi, doimo dolzarb bo‘lib turaveradi. Bizning ushbu magistrlik dissertatsiyamiz ham shu mavzuning ba’zi qirralarini ochishga bag‘ishlangan. O‘ylashimizcha, bu mavzu kelajakda ham o‘zbek va qardosh adabiyotlar qodirishunoslikning diqqat markazida turadi va bu yo‘nalishda katta katta ilmiy ishlar yozilishga shubha yo‘q.

A.Qodiriy buyuk yozuvchi, katta so‘z san’atkori. Shunday ekan, biz magistrlik dissertatsiyamizning kirish qismida yozuvchining ijod yo‘liga bir nazar tashlashga, asarlari haqida umumiy yo‘nalishda bo‘lsada to‘xtab o‘tishga qaror qildik. Mavzu tahliliga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tishdan oldin yozuvchi tarjimai holi o‘zbek adabiyotidagi o‘rni haqida ma’lumot bersak o‘ylaymizki ortiqchalik qilmaydi. Shu maqsadda A.Qodiriy ijodi to‘g‘risida umumiy ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Atoqli so‘z san’atkori, o‘zbek romanchiligining buyuk asoschisi Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrining Beshyog‘och daha, Eshonguzar mahallasida, bog‘bon oilasida dunyoga keldi. «Yoshim to‘qqiz-o‘nlarga borgandan so‘ng meni maktabga yubordilar», deb yozadilar tarjimai holida. Abdulla Qodiriy dastlabki savodni Zangi ota mahallasidagi mulla Olim domladan olganlar.

«Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq hayot kechirgani vajidan o‘n ikki yoshimda meni

bir boyga xizmatchilikka beradilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladigan odamga muhtoj edi. Shu tama bo'lsa kerak, meni o'ris maktab (rus-tuzem maktab)iga yubordi. Maktabdan qaytib kelgandan so'ngra xo'jayinimning xizmatini qilib yurganim uchun maktabda tegishli iste'fodani ololmadim; ikkin yil mundaq xizmatda yurib chiday olmasdan ota-onamga yolvorib, uyimga qaytib keldim va o'z uyimdan borib haligi maktabda, o'qib yurdim», – deb yozadi tarjimai holida. Rus-tuzem maktabi to'rt yil muddatli bo'lib, Abdulla Qodiriy uni 1912 yili muvaffaqiyat bilan tugatadi. Bitirish imtihonida general Samsonov ishtirok etgan va imtihonlarni a'lo darajada topshirgan Abdulla Qodiriy va Akmal Akromovlarga bittadan kumush soat mukofot bergan.

Uning rus-tuzem maktabida o'qishi, bolaligidanoq rus tilini puxta egallashi bo'lg'usi yozuvchi ijodiy taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi, rus va jahon adabiyoti, madaniyati bilan bevosita tanishuv uchun yo'l ochib berdi. Abdulla Toshkentdagi Abulqosim madrasasida 1916-1917 yillari ta'lim oladi. Madrasadagi qisqa ta'lim uning islom ilmi, arab va fors tillarini egallashi, keyinchalik bu sohalarni mustaqil o'zlashtirishi uchun zamin hozirladi.

Abdulla Qodiriy arab, fors va rus tillarini yaxshi o'rgangan. Oilasi kambag'allashganligi sababli bolaligidan boshlab mustaqil mehnat qila boshlagan, turli kasblarni egallagan, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qilgan (1907-1915). U 1918 yilda Eski shahar oziq qo'mitasining o'zbekcha sarkotibi, 1919 yilda «Oziq ishlari» gazetasining muharriri, 1920 yilda Kasabalar sho'rosining sarkotibi, 1924-26 yillarda «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi kabi ishlarda ishlagan. U matbuot, jurnalistika sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida 1924-1925 yillarda Moskvadagi jurnalistika institutida ta'lim oladi.

Abdulla Qodiriyning ilk ijodiy faoliyati 1913-1914 yillarda boshlangan. Dastlab «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914 yil 1 apreль sonida «Yangi masjid» sarlavhali xabar bosilgan. Bu xabar ostida «Abdulla Qodiriy» deb imzo chekilgan. Keyinchalik, uning «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga bir qaror!», «Fikr aylag'il»

kabi she'rlari «Sadoi Turkiston» gazetasi va «Oyna» jurnalida bosilgan. Abdulla Qodiriy bu she'rlarida millatdoshlarni jaholat va xurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma'rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Bu yillarda «Baxqiz kuyov» dramasi, «Juvonboz», «Uloqda», «Jinlar bazmi» kabi qator jiddiy, badiiy jihatdan pishiq asarlarini yaratgan. Uning «Juvonboz», «Uloqda» kabi hikoyalarida o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. Adibning «Uloqda» hikoyasi avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX asr boshidagi o'zbek adabiyotidagi realizmning cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriy 1919-1925 yillar oralig'ida matbuotda yuzlab maqola hajviyalar yaratdi. Bu asarlarini u har xil – Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo'lat, Ovsar, Dumbul, Shig'oy degan imzo- taxalluslar bilan e'lon etgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o'rtasida mashhur bo'lgani Julqunboydir. Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan narsa – uning hajviy asarlari, ya'ni «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan» va «Toshpo'lat tajang nima deydi?» kabi hajviy qissalaridir. Yozuvchi bu asarlarida odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodislarni sof mafkuraviy nuqtai nazardan turib, nuqul biryoqlama qoralash, fosh etish yo'lidan bormay, xarakter va hodisalarni xolis turib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishicha jazm etdi, – deydi adabiyotshunos olimlar U.Normatov, B.Karimovlar o'z ilmiy maqolalarida.

Abdulla Qodiriy sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida jurnalistik faoliyati bilan bir qatorda ko'plab publiqistik va hajviy asarlar yozdi va o'zbek adabiyotidagi birinchi roman «O'tgan kunlar» ni yaratdi. 1922 yilda «Inqilob» jurnalida romandan dastlabki parchalar e'lon qilingan. So'ngra romanning har bir bo'limi alohida-alohida kitobcha (birinchi bo'limi-1924, ikkinchi bo'limi-1925, uchinchi bo'limi- 1926 yillarda) holida nashr etildi. «O'tgan kunlar» romani xalqimizning XIX asr o'rtalaridagi hayotidan hikoya qiladi. U insonparvarlik, adolatparvarlik, vafodorlik, qahramonlik, zolimlarga va xiyonatchilarga cheksiz

nafrat ruhi bilan sug'orilgan. Romanda feodal xon va beklar o'rtasidagi o'zaro urushlar qattiq qoralanadi.

Muallif o'sha zamon kishilari ahvoli-ruhiyati, orzu- intilishlari, quvonch va tashvishlarini zo'r mahorat bilan yorqin obrazlar orqali ko'rsatadi. Romanning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. Jumladan, Otabek o'z ona Vatanini sevadi, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishini istaydi. U xon va beklar o'rtasidagi o'zaro be'mani urushlarni qoralaydi. Otabek reakqion urf- odatlar bilan kelisholmaydi, ularga qarshi turadi. U erkin muhabbat tarafdori.

«O'tgan kunlar» romanida adolatli xonlik tarafdagi Yusufbek hoji obrazi muhim o'rin egallaydi. Yusufbek hoji obrazida tadbirli, insonparvar, adolatparvar kishi, o'z xalqi va o'z yurtining taqdiri uchun qayg'uruvchi, o'z niyatlari puchga chiqqanda ham tushkunlikka berilmagan irodali inson, dono va mehribon ota qiyofasi namoyon bo'ladi.

«O'tgan kunlar» romani mehnatkash xalqqa chuqur hurmat ruhi bilan sug'orilgan. Yozuvchi Hasanali, usta Olim, Saodat, To'ybeka, Oybodoq singari mehnatkash xalq vakillari obrazlarini mehr bilan tasvirlagan. Jumladan, Yusufbek hojining xizmatkori Hasanali uddaburron, tadbirli, sadoqatli, aqlli, g'amxo'r, vijdoni pok, mehribon – umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo'ladi. «O'tgan kunlar» romanida xotin-qizlar obrazi salmoqli o'rin egallaydi. Yozuvchi xotin-qizlarning Kumushbibi, Zaynab, O'zbek oyim, Oftob oyim, Saodat, Oybodoq, To'ybeka, Xushro'ybibi, Jannat kampir kabi o'nlab xilma-xil obrazlarini yaratgan. Muallif, ijobiy obrazlarnigina emas, Homid, Xushro'ybibi, Jannat kampir, Musulmonqul, Azizbek, Sodiq kabi salbiy obrazlarni ham zo'r mahorat bilan yaratgan. Xushro'ybibi obrazini olaylik. Kumushbibi vafodorlik, go'zallik va samimiylkning ramzi bo'lsa, Xushro'ybibi ichi qoralik va shumlik, battollik va

yomonlik, behayolik va urshqoqlik, o'jarlik va xudbinlik timsolidir. Xullas, «O'tgan kunlar» romanidagi obrazlarning har biri o'zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asari – o'zbek romanchiligining birinchi cho'qqisidir. Qiziq ma'lumolardan yana biri, Abdulla Qodiriy sahar tongda “O'tgan kunlar” nomli asarini yozayotib, Kumushning vafoti jarayonida hatto o'zi ham yig'lagan.

Adib ikkinchi yirik asari «Mehrobdan chayon» ni 1928 yilning fevralida yozib tugatgan. Ushbu roman 1929 yili Samarqandda bosilib chiqdi. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida Qo'qon xoni Xudoyorxon va uning saroyidagi adolaqizlik, buzuqliklar, xon saroyining fisqu- fasod va fitna uyasi ekanligi ochib tashlangan.

Romanning mavzusini yozuvchining o'zi quyidagicha izohlaydi: «Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lg'an Xudoyorning o'z hohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi ro'monning mavzi'dir. Xudoyorning bu yo'ldag'i birinchi istinodgohi bo'lg'an ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg'ani ham xabosat pardasi ostida sezilmas darajaga yetkanligi mundarija sig'dirg'an qodar bayon qilinadi».

Abdulla Qodiriy 30-yillardagi murakkab sharoitda ham badiiy ijodni davom ettirdi. 1934 yil qishloq hayotidan «Obid ketmon» qissasini yozdi. Qissadagi Obid obrazi o'zbek adabiyotidagi noyob hodisa. Uni o'zbek xalqining mehnat, dehqonchilik, madaniyati bobidagi yetukligi timsoli, deyish mumkin. Yozuvchi inson shaxsiga yondoshishda o'sha davrda odat tusiga kirgan tor «sinfylik» doirasidan ancha chetga chiqib umuminsoniy qadriyatlarni asrash, ardoqlash yo'lidan boradi. Adib xolis turib kollektivlashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatadi. Kolxoz tuzumi oxir-oqibatda odamlardagi

tashabbusni, shaxsiy egalik, manfaatdorlik tuyg'usini so'ndirish mumkinligini aytadi.

Abdulla Qodiriy asarlar yozish bilan bir qatorda zukko tilshunos, zabardast tarjimon sifatida ham katta ishlar qiladi. Adib tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N.V.Gogolning «Uylanish» asarini (1935), A.P.Chexovning «Buqalamun» (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. N.V.Gogolning «Uylanish» asari tarjimasi o'sha yili Hamza nomli teatr sahnasida o'ynaldi. Qozonda nashr etilgan «To'la ruscha-o'zbekcha lug'at»ni (1934) tuzishda ishtirok etgan. Abdulla Qodiriyning asarlari, jumladan romanlari jahon miqyosida tez tarqaldi. «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari, rus, ozarbayjon, latish, litva, tatar, turkman, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, arab, italyan, ingliz, nemis, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda. Abdulla Qodiriy «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri» kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgan. «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri» romanlari uchun materiallar ham yiqqan. Biroq mustabid tuzum adibning bu orzularini ro'yobga chiqarishga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum» da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat hibsga olingan. Bu maqola hajv tariqasida yozilgan bo'lib, unda bir necha kishilar, arbob kimsalar haziltomuz tanqid qilib o'tiladi. Hajviyasidagi tanqidiy mulohazalar uchun «aksilinqilobiy harakat qilganlik» da ayblanib hibsga olingan. Adibning tarixiy romanlari millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yozilganligi ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Yaratilgan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30 yillarning o'rtalariga kelib, bu mash'um ulfatlar (kompaniya) avjiga chiqdi.

Adib 1937 yilning 31 dekabr kuni kechqurun hibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so'roq-tergov, qiynoq tahqir, xo'rlikdan so'ng 1938 yil 4 oktyabrda Cho'lpon, Fitrat kabilar bilan birga qatl etildi. Qodiriy hibsga olingach, oilasini ta'qib etish boshlandi. Hovli-joyi tortib olindi. U yaratgan asarlar zararli sanalib,

mahv etildi, o'tda yoqildi, kutubxonalardan yo'qotildi, ularni o'qish taqiqlandi. Bunday ta'qibu tahqirlar yigirma yil davom etdi. Nihoyat sobiq partiyaning XX s'ezdida shaxsga sig'inish qoralanib, uning oqibatlarini tugatishga kirishilgach, totalitar tuzumning aybsiz aybdorlari, qurbonlari qatori Abdulla Qodiriy ham oqlandi.

1958 yildan boshlab uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin u haqida va asarlari haqida qator tadqiqotlar va risolalar yaratildi. Jumladan: M.Qo'shjonovning «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» (1966), «Qodiriy – erksizlik qurboni» (1992), «O'zbekning o'zligi» (Qodiriyga armug'on) (1994), A.Alievning «Abdulla Qodiriy» (Adabiy-tanqidiy ocherk) (1967), F.Nasriddinovning «Adibning yo'li» (1971), «Mahorat jilolari» (Abdulla Qodiriy ijodiyoti) (1974), M.Sultonovning «Yozuvchi uslubiga doir» (1973), I.Mirzaevning «Abdulla Qodiriy» (1975), O.Sobirovning «Sarchashma adib ijodida» (1975), «Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyuqiyasi» (1977), Habibulla Qodiriyning «Otam haqida» (1974 –1983), Murodxon Abdug'afforning «Iste'dod jozibasi» (Abdulla Qodiriy hikoyalarining badiiyati va ularning qiyosiy tahlili) (1992), U.Normatovning «Qodiriy bog'i» (Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida) (1995), «O'tgan kunlar» hayrati (1996), X.Lutfiddinovning «Gullarning ra'nosi» (1997), Bahodir Karimning «Qodiriy qadri» (2003), S.Mirvalievning «Abdulla Qodiriy» (hayoti va ijodi) (2004) kabi risolalar yaratildi.

Adibning hayoti, ijodiga bag'ishlab hujjatli film, asarlaridan kino va pesalar yaratildi va yaratilmoqda. Jumladan, «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi romanlari bo'yicha badiiy film va videofilmlar ishlandi va teatr sahnalarida qo'yildi.

Marhum Habibulla Qodiriyning otasi haqida yozib qoldirgan xotiralari asosida «Xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir» hujjatli filmi tayyorlandi. Filmning senariysi adibning nevarasi Sherxon Qodiriy qalamiga mansub, rejisser Sh.Bizzatov uni ekranga olib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil mustaqilligi e'lon qilgandan so'nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), Vatanimizning eng yuksak mukofoti – «Mustaqillik» ordeni birinchi bo'lib Abdulla Qodiriyga berildi (1994), Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasining badiiy ijod sohasidagi ilk oliy mukofoti, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991 yil 6 fevralda ta'sis etildi.

Bu mukofot adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida yaratilgan, milliy istiqlol g'oyalarini yorqin badiiy shakllarda aks ettirgan, O'zbekistonning buyuk tarixini va hozirgi yuksalish jarayonlarini haqqoniy obrazlar orqali gavdalantirgan va keng jamoatchilik tomonidan tan olingan yetuk asarlar uchun beriladi.

Hozirgi kunda Toshkent Davlat Madaniyat instituti, Jizzax Davlat pedagogika instituti, Xalq merosi nashriyoti, Navoiy viloyati universal ilmiy kutubxonasi, metro bekati, istirohat bog'lar, maktab va ko'chalar, mahallalarga uning nomi berilgan. Abdulla Qodiriy qoldirgan ma'naviy meros – uning nodir asarlari mangulikka dahldordir.

Ko'rdikki, A.Qodiriy betakror so'z san'atkori. Bunday adiblar ijodini o'rganish olimlarning muqaddas vazifalaridan biri bo'lsa, asarlarini o'qish, ulardan ma'naviy ozuqa olib, komillikka intilish har bir inson, ayniqsa, yoshlar uchun ham qarz ham farzdir.

I BOB

ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGANISHNING YANGI BOSQICHI

1.fasl. Matyoqub Qo'shjonov tadqiqotlarida Abdulla Qodiriy ijodi talqini

“Kitoblar borki, negizida zamon nuqtai nazaridan muhim voqea va katta mavzular yotadi. Ularda balandparvoz iboralar o'xshatishlar metaforalar haddan ziyod ishlatiladi, biroq kitobni qo'lga olib o'qishga qiynalasiz, bordi-yu o'zingizni zo'rlab o'qiydigan bo'lsangiz undan biror taassurot ololmaysiz... Kitoblar borki negizida aks ettirilgan mavzu birinchi qarashda unchalik katta va muhim emasdek tuyiladi, balandparvoz so'z va o'xshatishlar tiqishtirilaverilmagan bo'ladi. Yozuvchi tanlagan voqea va g'oya qancha oddiy bo'lsa, unda ishlatiladigan so'zlar shuncha oddiy. Biroq kitob o'qigan kishida katta taassurot qodiradi. Kitobda aks ettirilgan oddiygina voqea va undan kelib chiqadigan g'oya diqqatingizni o'ziga tortadi. Bir necha kunlab, ba'zan oylab kitob ichidagi voqealar bilan yashaysiz, uning qahramonlari bilan yaqin bo'lib qolasiz. Go'yo ular bilan bir umrlik yo'ldoshsiz... bu kitoblar shubhasiz, millionlarning yo'ldoshi bo'lib qoladi”¹.

Abdulla Qodiriy! Bu nomni eshitmagan, uning asarlarini qayta-qayta o'qimagan, qalbida tahsin aytmagan biror kimsa topilmasa kerak. Bu ajoyib, qudratli iste'dod sohibining o'lmas adabiy merosi har jihatdan o'rganish, chuqur tahlil etish va e'zozlashga arzirlikdir. Uning “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” asarlari 20-yillardayoq endigina shakllanib kelmoqda bo'lgan yangi prozamızning ajoyib durdonalari sifatida keng kitobxonlar ommasining e'tiborini o'ziga tortdi va o'shandan beri to bizning kunlargacha bu e'tibor va qiziqish aslo susaygan emas.

Abdulla Qodiriyning ijodi haqida o'z vaqtida ham, undan keyin ham ko'p fikrlar aytili. Lekin ulkan adib ijodining mohiyati soyada qolib, undan faqat nuqsonlar izlash hollari yuz bergan vaqtlar ham bo'ldi. Jumladan, 20-30-yillarda ayrim tanqidchilar yozuvchining asar mavzuini o'tmishdan olganligini dastak qilib,

¹ M. Қўшжонов. Ҳаёт ва қаҳрамон, II-бет

Qodiriyning zamonaviy mavzuda yirik janrlarda asar yaratmadi, g'oyaviy cheklanib qoldi deb ayblab shov-shuv ko'targan edilar. Adabiyotshunosligimizda A. Qodiriy ijodi haqida haqqoniy, obektiv va ilmiy dalilangan fikrlarni birinchi bo'lib filologiya fanlari doktori Izzat Sultonov aytgan edi. Matyoqub Qo'shjonov ham adabiyotshunoslikning ilg'or pozitsiyalarida turib ulkan adib ijodining qimmatini va mohiyatini yoritib berishga bel bog'ladi. M. Qo'shjonov A. Qodiriy ijodi yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida zamonaviylik va tarixiylik, yozuvchining, san'atkorlik masalalariga keng to'xtaladi. Tarixiylik bilan zamonaviylikni vulgar tushunchalariga zarba berdi. "Tarixiylik zamonaviylikni rad etmas"ligini isbot etdi. "Har bir haqiqiy san'at asari tarixiydir", ² deydi u. Tarixiy voqealar, tarixiy nomlar, binobarin, tarixning o'zi ham badiiy asar uchun faqat vosita, yozuvchi g'oyasini kitobxonga ishonarli qilib yetkazish uchun, badiiy to'qimani hayot fakti, tarixiy faktlar bilan dalillash, asoslashdir, deb uqtiradiki, olimning bu fikriga to'la qo'shilish kerak.

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida XIX asr ikkinchi yarmidagi davrning tarixiy mohiyatini ochishga harakat qiladi. Romanda ikkita yo'nalish mavjud. Muhabbat mojarosi bilan tarixiy voqealar oqimi bir markaziy tugunni tashkil qiladi. Shuningdek, asarning butun yo'nalishida yaxshi va yomonlar o'rtasidagi munosabat ochib tashlangan.

Shu yo'sinda san'atkorlar ijodi, ularning asarlarida tasvirlanmish voqea-hodisa haqida obyektiv so'z yuritilganda tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish zarurligini unutmaslik kerak. Zero, davr ruhi asarning tarixiylikni belgilashi ayon masala-ku! Abdulla Qodiriyning o'ziga xos nafis san'ati – insoniy go'zallik bilan o'sha davr zulmati orasidagi ziddiyatlarning jonli tasvirlanishida yanada yaqqolroq ko'rinadi. Bu masala butun roman sujeti chizig'ini harakatga keltiruvchi kuch kabi, o'quvchi qalbini, e'tiborini o'ziga zanjirband qilib olgandek tuyuladi.

Bu o'rinda asarning bosh qahramoni, ruhan va ma'nan nihoyatda kuchli shaxs bo'lmish Otabekning tiniq obrazi diqqatga sazovordir.

Abdulla Qodiriyning Kumushbibisini hamma birday sevadi, ardoqlaydi, sevinchiga, qayg'usiga sherik bo'ladi. U bilan barobar kulib, barobar yig'laydi. Nega shunday? Chunki, uning portreti eng mashur rassomlar mo'yqalami bilan tenglashadigan darajada san'atkorlik bilan chizilgan. Lekin bu masalaning bir tomoni, xolos. Gap o'sha go'zallik, portret chizig'lari orasida «Kumush xarakteridagi psixologik belgilarni ham bera bilishdadir».

Masalan bu bilan ham cheklanmaydi. Kumushbibi obrazi misolida yozuvchining barcha istak-orzulari, ijtimoiy sistemaga munosabati, eskicha urf-odatlar, tartib-qoidalarga nafrati, oila qurish haqidagi yuksak orzulari, xullas, butun bir hayotiy problemalar majmuasi g'oyat ustalik bilan ochiladi.

Abdulla Qodiriy hech mubolag'asiz, dadil aytish mumkinki, yozuvchilik san'atining barcha tomonlarida o'zining yuksak mahorat sohibi ekanini ko'rsata oldi. Matyoqub Qo'shjonov «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati»² deb atalgan ilmiy tadqiqotida adibning «O'tkan kunlar» romani misolida uning badiiy mahoratini tahlil qilishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Olim aniq va izchil partiyaviy pozitsiyada turib, ana shu konkret bir asar vositasida yozuvchining ijodiy muvaffaqiyatlarini, san'atkorlik sirlarini ochib berdi.

M. Qo'shjonov «O'tgan kunlar» romanini tahlil qilar ekan, uning hamon qo'ldan-qo'lga o'tib, sevib o'qilishining sir va sabablariga keng va batafsil to'xtadi. Olim asar qahramonlarini ularni to'lqinlantirgan turmush masalalari, ijtimoiy muammolar spektrida tavsiflaydi. Romanda hayajonli muhabbat mojarolari ijtimoiy adolatsizliklar, feodal tuzumning chirkinligidan kelib chiqqan o'zaro qirg'inlar, maishiy hayot kartinalari, urf-odatlar tasviri bilan almashadi. Olim «markaziy g'oya odatda asardagi bosh obrazlar tasvirida ifodalanadi» degan aqidaga amal qiladi va shu asosda qahramonlar taqdiriga to'xtaladi.

M. Qo'shjonov shu bilan barobar «O'tgan kunlar»ning g'oyasi, «asl mafkurasi»ni quyidagicha belgilaydi: «Sharq feodalizmi zulmati ichida kishilar

² M. Қўшжонов. « Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати», «Фан», Тошкент, 1966 йил.

ongidagi o'z millatining taqdiri to'g'risida o'ylash, bu borada konkret ideallarga ega bo'lish va muhabbat erkinligini ulug'lash «O'tgan kunlar»ning g'oyasi, asl mafkurasi deb qaralsa, shu masalalar orqali obrazlar taqdiri bir-biri bilan tabiiy ravishda bog'lanib ketadi». «O'tgan kunlar»ning asosiy «mafkurasi» «millat taqdirini o'ylash» va «muxabbat erkinligini ulug'lash» deb atash albatta xato emas, lekin bu birmuncha chalkashroq, noaniqroqdir. «O'tgan kunlar»ning asosiy g'oyasini nazarimizda Izzat Sulton aniqroq, ravshanroq belgilab beradi. Chunonchi, u bu haqda to'xtalib yozadi:

«Romanning g'oyaviy mundarijasi asosiga qo'yilgan fikr - feodalizm davridagi sotsial tartiblarning va shularning bir tomoni bo'lgan «odat»ning adolatsizligi va bema'niligi g'oyasi - asarning birinchi boblaridayoq o'rtaga tashlanadi va katta bir epik asarning boshqa xamma boblari shu asosiy g'oyani turli tomondan yoritishga va asoslashga xizmat qiladi»³.

Shu fikr haqiqatga yaqinroqdir. Buni Abdulla Qodiriyning romanda «tariximizning eng kir, eng qara kunlarini» qalamga oldim degan so'zlari ham tasdiqlab turadi. Romanning asosiy g'oyasini va uning pafosini belgilashda ulkan adibning shu so'zlariga, ular ifodalagan teran ma'noga suyanmoq to'g'riroq bo'ladi. M. Qo'shjonov «O'tgan kunlar»da harakat qiluvchi kishilar obrazlarini tahlil qilganda, ko'proq Oybekning mashhur ocherkiga, atoqli olim va dramaturg I. Sultonning Abdulla Qodiriy ijodiyotiga bag'ishlangan g'oyatda teran, prinsipial, qodiriyshunoslikka asos solgan tadqiqotlariga suyanadi. Ularda ilgari surilgan fikrlarni davom ettiradi va rivojlantiradi. Xususan, u Otabek obraziga batafsil to'xtalib, uning insoniy xususiyatlarini ocharkan, «Otabek tarixning maqsuli, ammo tarixni yaratuvchilardan emas»⁴, degan xulosaga keladi. Bu fikr Oybekning Otabek haqida yozgan «uning obrazi davr taraqqiyoti tendendiyasini to'laligicha aks ettiruvchi sotsial tip darajasiga ko'tarila olmaydi», «Otabek faqat ishq yo'lida

³ Иzzат Султон. Асарлар. Тўрт томлик, 2-том, Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, Т. 1975, 355-бет.

⁴ «Ҳаёт ва қаҳрамон», 42-бет.

jasorat ko'rsatadi»⁵ degan fikrlariga uyg'undir. Xuddi shuningdek, Oybek Otabek obrazining ijtimoiy mohiyatini ham nihoyatda to'g'ri ochadi va: «Otabek istilochilik ideologiyasining birinchi qaldirg'ochi, u fedal-xonlik idora usulidagi beboshliklarni cheklash bilan «el ham rohat tirikchilik qiladi» deb tushuntiradi...»⁶.

Matyoqub Qo'shjonov Oybekning shu yorqin fikrini rivojlantiradi va: «Otabek aktiv yaratuvchi emas, balki passiv kuzatuvchi, voqealar oqimiga o'zining kirib qolganligini o'zi sezmay qoladigan kishidir»⁷ deb yozadi. M. Qo'shjonov xuddi shu o'rinda juda ham nozik bir kuzatishni o'rtaga tashlaydi. Otabek obrazini muxabbat mojarolari, yigitliklar atrofida tushunish va tushuntirish uning mazmunini cheklab, toraytirib qo'ygan bo'lardi. «Otabekning ijtimoiy va siyosiy masalalarga munosabati,- deb yozadi M. Qo'shjonov,- uning otasi Yusufbek hoji vositasi bilan ko'rsatiladi... Yozuvchining bu uslubini narsani bir oynadan, ikkinchi bir oynaga tushirish orqali ko'rsatishga o'xshasa bo'lar edi»⁸.

M. Qo'shjonov shu tariqa Otabek obrazini boyroq, kengroq, qamrovliroq anglaydi va tushuntiradi. Bu qolavesa, uning Otabek obrazini yangicha anglashga, unga yangicha bir nuqtai nazardan qarashga qo'shgan hissasidir.

Albatta, M. Qo'shjonov bu tadqiqotda Otabek obrazini tanazzil qilishni birinchi vazifa qilib qo'ymaydi. Uning oldiga qo'ygan maqsadi boshqa. U asosiy e'tiborini Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahoratini ochishga qaratadi va «O'tgan kunlar»ning uslubi, kompozitsion qurilishi - arxitektonikasi, kolliziyalar, syujet taraqqiyoti, tugunlar, voqealarning peripetiyalari va ularni antiteza usuli bilan kuchaytirib borish, nihoyat, bularning hammasini bir g'oyaviy maqsadga xizmat qildirish kabi masalalarni ko'taradi, ularni professional jihatdan baland saviyada hal qilishga intiladi.

M. Qo'shjonov monografiyaning «Insoniy go'zallik va zulmat», degan bobida yozuvchining, xususan, Otabek xarakterini tasvirlashda ijodiy uslubiga xos

⁵ Ойбек. Асарлар. 9-том. Т., 1974, 263-264-бетлар.

⁶ Шу асар, 263-бет.

⁷ «Хаёт ва қаҳрамон». 82- бет.

⁸ Шу китоб. 82- бет.

yana bir xususiyat sezilib turishiga e'tiborni tortadi. Bu insoniy go'zallik bilan o'sha davr zulmati orasidagi ziddiyatlarning jonli tasviridir. Olim yozuvchining hayot ziddiyatlarini to'g'ri tushunib, tanlab, uni o'z asarida haqqoniy aks ettirganini ishonarli dalillar tizmasi bilan asoslab beradi. «Abdulla Qodiriy inson go'zalligini toptab kelayotgan shunday kuchlarni ham anglay olgan va xarakterlar taqdirini bu kuchlar zamirida tasvirlashga muvaffaq bo'lgan», — deb yozadi M. Qo'shjanov. Tadqiqotchisi, «bu kuchlar» deganda, chirigan feodalizmdan quvvat olib zo'raygan turli yaramas urf-odatlarini va xususan uning «o'g'il uylantirish», «ota-ona orzusi» deb ataladigan «ko'rinishlarini» nazarda tutadi. Shu munosabat bilan u romanning; eng kolorit qahramonlaridan bo'lmish O'zbek oyim obraziga to'xtaladi. Abdulla Qodiriy bu obrazning xarakter mantiqini qanchalar ustalik bilan yaratganligini ta'kidlab o'tadi.

Ota-ona orzu-havasi Otabekning ideallariga, mukabbatiga bolta uradi. Otabek ota-ona tazyiqiga (juda yumshoq va hatto ixtiyor yana Otabekning o'ziga tashlangan, lekin g'oyatda qat'iy tazyiq nisbatan, tashqaridan qaraganda, juda passiv munosabatda bo'ladi. Bu holatni olim juda chiroyli izohlaydi: “Ha, Otabek ruhan kuchli shaxs. Kuchli pahlavonlar o'ziga yaqin, lekin unga nisbatan kuchi kam kishilar bilan kurash maydoniga chiqib qolsalar, yiqilib ko'ya qolishni afzal ko'radilar. Otabek ham mazkur vaziyatda o'zini xuddi shunday his qilardi. Demak, Otabekda paydo bo'lgan bu kuchsizlik uning kuchliligidan kelib chiqadigan holatdir»⁹. Olim «orzu-havas» shiddati tufayli romanda ziddiyatga kirishuvchi kuchlarning nisbati o'zgarganligini aniqlaydi va xuddi shu narsa Otabek xarakterini tasvirlashda yozuvchi uslubiga ta'sir qilganligini kuzatadi. Shu kuzatish ham M. Qo'shjonov qanchalar sezgir va o'tkir ko'zli olim ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Zotan, ijod bu – mehnat, shu bilan birga va ehtimol, shundan ham ko'proq darajada, bu – tabiat demakim, ijodkorning tabiatga uning asarlariga qanchalar ta'sir etishi shundan ham ma'lum... Chunonchi, olim shunday deb

⁹ «Хаёт ва қаҳрамон». 49 – 50-бетлар.

yozadi: «To'qnashuvchi kuchlar va ularning nisbat o'zgarishi Otabek xarakterini tasvirlashdagi yozuvchi uslubiga ta'sir qiladi. Bungacha yozuvchi ko'proq vaziyatni tasvirlab, o'sha vaziyat munosabati bilan Otabek xarakterini ochishga harakat qilar va bu yo'lda muvaffaqiyatlarga erishar edi. Endi yozuvchi bu uslubdan butunlay kechmagan holda qahramonning ruhiy dialektikasini – unda ro'y beradigan ruhiy holat almashishlarini tasvirlash bilan uning xarakterini ochishga harakat qiladi».

Abdulla Qodiriy hayotiy ziddiyatlar tasvirini xarakterlarning badiiy tasviri bilan chambarchas bog'liq holda olib boradi. M. Qo'shjonov yozuvchining tasviriy uslubiga xos mana shu jihatni nozik idrok qiladi va chuqur tahlildan o'tkazadi.

«Otabek xarakterini ochishdagi bosh uslubning o'zgarishi», ya'ni qahramon ichki dunyosining psixologik kartinalarini chizish tomonga o'tilishi badiiy vositalardan keng foydalanishga imkon beradi», deb yozadi olim va shu fikr asosida u qahramon xarakterini gavdalantirish bilan bog'liq ichki va tashqi kolliziyalarni ularning chambarchas birligida ko'zdan kechira boshlaydi. Otabek ota-ona orzusiga qarshi borolmadi, qabih muhitni yorib chiqishga uning kuchi yetmadi. Shu bilan birga u qalbiga hokim muhabbatdan ham yuz o'girolmaydi. U ikki o't o'rtasida o'rtanadi. Yozuvchi shundan e'tiboran Otabek ichki dunyosida ro'y berayotgan o'zgarishlarni, iztirob alangalarini quyuq badiiy ranglar bilan tasvirlashga o'tadi. Shu munosabat bilan M. Qo'shjonov Otabek obrazida psixologizm masalasiga to'xtaladi va qiziqarli fikrlarni o'rta tashlaydi. Tasvirda chuqur psixologizm romanning uslubiy yo'nalishini belgilashini ta'kidlaydi va shu psixologizmning muayyan ko'rinishlarni tahlil qiladi. Otabek psixologizmi haqida so'zlashgan, u romanda uslubiy bo'yoqlar benihoya quyuq tusga kirgan hollarda ko'zga tashlanadigan sentimentalizm holida mulohaza yuritadi, Otabekning ko'z yosh to'kishlariga yozuvchi haddan ortiq e'tibor bilan qaraganligini, shunday holatlarni bo'rttirib tasvirlaganligini va bular romanda sentimentalizmdan darak berishini aytadi.

Tahlil shu yo'sinda davom etadi va tadqiqotchi Otabek obrazini tanlashda yozuvchi suyangan asosning to'g'riligi, realligi, mantiqiyligini dalillab beradi. Asarda tanlangan obrazlar qanday mansabdagi kishilar toifasidan, qaysi tabaqadan bo'lmasin, ular bir-birlari bilan uzviy bog'lanadilar. Ularning tadqiqotlari bir-birlari bilan chirmashib ketadi. Bu bog'lanishlar ba'zi bir asarlardagi singari tasodifiy bo'lmay, balki qat'iy va chambarchasdir. Tadqiqotchi romanni his qiladi, Abdulla Qodiriy g'oyalarni dialektik anglaydi va qiziqarli tahlil bilan roman haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Romanning bosh g'oyasi asosan yetakchi obrazlarda yorqinroq ifoda etilganligi uchun tadqiqotchi o'z diqqat-e'tiborini ko'proq ana shu obrazlarga qaratadi. Otabek va Kumush obrazlarini yozuvchi qay yo'sinda yorqin va jozibali obrazlar darajasiga ko'tara olganligini ishonarli ko'rsatib beradi.

Realistik asarning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, undagi obrazlar xarakteri aniq voqealar, realistik vaziyatlar vositasida ochiladi. Yozuvchi o'z qahramonini har xil vaziyatlar, marosimlar ichiga olib kiradi, bu marosimlarga uni bevosita ishtirok ham ettiradi, so'zlatadi, turli ruhiy holatlarga soldi. "O'tgan kunlar" muallifi ham o'z qahramonlarini xarakterini yaratish, ular qiyofasini kitobxon ko'z o'nggida jonliroq, to'laqonliroq gavdalantirib berish uchun realistik badiiy tasvirning mana shu imkoniyatlaridan juda o'rinli foydalaniladi. U eng avvalo, asar qahramonlarining xatti harakatlariga mos aniq bir maydon yaratib oladi. So'ng ularni harakatga kiritadi. Lekin yozuvchi bunday paytda kitobxonni ko'proq nimalar qiziqtirishini, voqealar qay tarzda berilsa o'quvchi uchun hayotiyroq, maroqliroq, jonliroq bo'lib chiqishini e'tiborga oladi. So'ng ularni harakatga kiritadi. Lekin yozuvchi bunday paytda kitobxonni ko'proq nimalar qiziqtirishini, voqealar qay tarzda berilsa o'quvchi uchun hayotiyroq, maroqliroq, jonliroq bo'lib chiqishini e'tiborga oladi, rang-barang usullarni ishlatadi. Ana shunday usullardan biri voqealarning sirli bayon qilinishidirki, M.Qo'shjonov o'z kitobida bu usul tahliliga keng o'rin ajratadi. Bu usul bilan yozuvchi o'z

qahramonlari ruhiy olamini mohirona ochib berishga muvaffaq bo'ldi. Yozuvchi shu yo'l bilan Otabekni muhabbat otashida qovuradi. "Oy kabi yuzlar" sohibasi bo'lmish Kumushbibini esa "notanish yigit" dog'ida iztiroblarga soldi. Tadqiqotchi bu iztiroblar jarayonini, yozuvchining o'zi ko'zda tutgan tutganday, barcha nafis chiziqclarigacha aniq ko'radi, maromiga yetkazib, izchil tahlil qiladi. Hamma ham ko'rishi mumkin bo'lgan oddiy voqealarni yozuvchi qay darajada sirli, qiziqarli, jazibador tasvirlay olganligini – "voqea tasvirini san'at darajasiga ko'tara olganligini" alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

Akademik M.Qo'shjonov o'zbek adabiyotshunosligida, avvalo, yirik qodiriyshunos sifatida tanildi. Olim yozuvchining badiiy mahorati aspektida o'rganish uni boshqa qodiriyshunoslardan alohida ajratib turadi. Hech bir olim A.Qodiriyning yozuvchilik mahoratini M.Qo'shjonovchalik mukammal tahlil qilib bergan emas. Ayniqsa, tanqidchilik "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" kitobi bu sohada nafaqat qodiriyshunoslikda, balki umuman o'zbek adabiyotshunosligida kashfiyot darajasidagi tadqiqot bo'lganligi mutaxassislar ham, o'quvchilar ham yangilik bilan tan olishdi. Olimning "Qodiriy – erksizlik qurboni" kitobi esa mustaqillik yillaridagi qodiriyshunoslikning cho'qqisi bo'ldi. Zotan xato emas. Shunday xulosa fikrimiz shundan iboratki, M.Qo'shjonov o'zbek qodiriyshunosligining yirik vakili. A.Qodiriy haqidagi kitoblar bilan umr yozuvchiga o'ziga xos haykal qilib qo'yib ketgan olimdir.

1.2. Yozuvchi ijodining yangicha talqinlari (Bahodir Karim tadqiqotlari misolida)

Metodologik tafakkuri shakllanmagan adabiyotshunoslik fan sohasi sifatida nolga tengdir. Mustaqillik davrining eng ilg'or adabiyotshunos olimlari o'tgan yigirma besh yil davomida ayni muammoni bartaraf etish, milliy adabiyotshunosligimiz metodologiyasini ishlab chiqish, ushbu fanni jahon ilm-fani standartlari darajasiga ko'tarish ustida ish olib bormoqdalar. Filologiya fanlari

doktori Bahodir Karimovning ilk satrlari 90-yillar oxirlarida yozilgan “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” (Toshkent: Akademnashr, 2014) nomli monografik tadqiqoti adabiyotshunosligimizdagi mana shunday og‘riqli muammoni hal etish yo‘lidagi jiddiy urinishlardan.

Shu ma'noda monografiya ijtimoiy-ma'naviy, badiiy-estetik falsafiy-badiiy, ilmiy-nazariy jihatdan muhim nuqtalarga ega.

Birinchidan, kitobga o‘zbek romanchiligining bunyodkori Abdulla Qodiriy ijodi manba qilib olingan. Yozuvchi ijodiga oid bir asrlik adabiyotshunoslik materiallari monografiya uchun tadqiqot ob'yekti vazifasini bajargan. Bunda olim o‘tgan asr 20 - 30-yillaridagi eski o‘zbek yozuvi hamda isloh qilingan lotin alifbosida nashr etilgan gazeta, jurnal, alohida tadqiqot va ilmiy risolalarni to‘plash, umumlashtirish, tadqiq etish yo‘lidan borgan. Sho‘ro hukumati maxsus xizmati tomonidan “daxl qilib bo‘lmaydigan” arxiv materiallariga aylantirilgan ma'lumotlarni to‘plagan va tadqiqot ishida foydalangan.

Ammo bu manbalar “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” monografiya- sidagi o‘zbek adabiyotshunosligi materiallarining uchdan birini tashkil etadi, xolos. Kitobning keyingi qismida I.Sulton, M. Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, H. Abdusamatov, A.Aliyev, B.Karimov, A.Rasulov, U.Normatov, N.Karimov, S.Mirva- liyev, B.Nazarov, B.Do‘stqorayev, I.G‘afurov, X.Sultonov, R.Inog‘omov, M.Qarshiboy, A.Rahimov, N.Boqiy, R.Tojiboyev singari adabiyotshunos va adiblarning Abdulla qodiriy ijodiga doyr turli mazmun va shakldagi ishlari tadqiq etilgan. O‘zbek qodiriyshunosligida namoyon bo‘lgan nazariy-estetik ilmiy-tanqidiy, badiiy-publististik fikr-xulosalar, monografik tadqiqotlar tapqin nazariyasi nuqtai nazaridan xolis o‘rganilgan va baholangan. O‘zbek qodiriyshunosligining sho‘ro va mustaqillik davriga xos konseptual prinsiplari solishtirilib, milliy adabiyotshunoslik metodologiya- siga doir salmoqli xulosa hamda takliflar o‘rtaga tashlangan.

Ikkinchidan, monografiya muallifi qodiriyshunoslik muammolarini faqat o‘zbek adabiyotshunosligi manbalari doirasida o‘rganish bilan cheklanib qolmagan.

Monografiyaning salmoqli qismini xorij qodiriyshunosligi tadqiqi tashkil etgan. “Dunyo olimlari nigohi” deb nomlangan bo‘limda amerikalik adabiyotshunoslar Edvard Olvort, Edin Nabi, Xristafor Murfi, germaniyalik olimalar Ingeborg Baldauf, Zigrid Klaynmihyellar, tatar olimi Zarif Bashir, o‘zbek muhojir olimlari Boymirza Hayit, Azimzoda, Q. Isroiljonlarning salmoqli, o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangilik bo‘ladigan asarlari tahlil etilgan. E’tiborli jihati shundaki, B. Karimov aksar xorij olimlari tadqiqotlarini original (nemis va ingliz tillari)da o‘qib, original usulda tadqiq qilgan. Muallif bu asarlar tahlili asosida shunday fikrni ilgari suradi: “Ma'lum bo‘lmoqdaki, salkam bir asr mobaynida xorij olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga turli aspektlardan yondashib tadqiq etganlar. Albatta, ba’zi maqolalarda tuzumlararo g‘oyaviy kurash ta’siri, ayrimlarida o‘ta sub’yektivlashuv holatlari kuzatiladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy ijodini ikkinchi bir millat yozuvchilari ijodiga qiyosan xolis o‘rgangan yoki jahon adabiyotshunosligi metodlari kontekstida Grinli talqin etgan olimlar ham bo‘ldi”.

Uchinchidan, ilk bor aynan B. Karimov tomonidan o‘zbek zamonaviy badiiy-estetik tafakkuri maydoniga jahon adabiyotshunosligining eng faol, eng teran tadqiqot usuli – germenevtika metodi mazmun-mohiyati, bor ko‘lami darajasida olib kirildiki, bu monografiyaning eng muhim yutug‘i hisoblanadi. Monografiyada germenevtika metodi uch jihatdan tadqiq etilgan va ilmiy-nazariy sintez qilingan: a) germenevtik tafakkurning mansha'i va manbalari qiyosiy o‘rganilgan, falsafiy-badiiy kriteriyalari ishlab chiqilgan. Bunda muallif qadim yunon mifologiyasi, falsafasi, adabiyotshunosligi hamda badiiy materiallarini analiz etgan, ilmiy sintezlagan va o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim nazariy xulosalarni ilgari surgan; b) monografiyada Sharq ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik tafakkuri tarixida mavjud tafsir, sharh, ta'vil, tabdil ilmlari, bularning jahon germenevtik tafakkuri shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Ayni umumlashmalarni o‘zbek mumtoz adabiyoti, jahon adabiyoti, folklor, adabiy tanqid, xususan, qodiriyshunoslikka tatbiq etish yo‘l va usullari ko‘rsatib berilgan.

O'ylashimizcha, bunda muallifning arab va fors tillarini bilishi ko'l kelgan; v) zamonaviy hermenevtika ilmining yetakchi vakillari F.Shlayermaher, V.Diltey, M.Xaydegger, G.Gadamerning hermenevtika falsafasi va nazariyasi xususidagi qarashlarini tahliliy o'rganilgan, nazariy umumlashtirilgan, ularga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, talqin nazariyasining milliy adabiyotshunoslik istiqbolidagi vazifalari belgilangan.

Bularning hammasi B.Karimov monografiyasining nazariy jihatdan mukammal, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan dolzarb, badiiy-estetik qamrov nuqtai nazaridan jahoniy ko'lamga ega ekanini ko'rsatadi.

Nihoyat, *to'rtinchidan*, B. Karimov hermenevtika metodining faqat falsafiy va nazariy asoslarini ko'rsatish bilan cheklanib qolmagan. Abdulla Qodiriy asarlari tadqiqi asosida ayni metodning amaliy jihatdan naqadar foydali, ko'lamdor va chuqur ekanini isbotlagan. Monografiyaning boshqa joylarida bir ijodkor yoki bir asar matniga bir necha Talqin usullari asosida yondashuvning talqin nazariyasi (hermenevtika) nuqtai nazaridan muhimligini asoslab bergan muallif "Satirik talqin sirlari" deb nomlangan bo'limda ayni samarali usulning amaliy jihatlarini tahliliy ko'rsatadi. O'ta murakkab va shiddatli davr ziddiyatlari balqib turgan asarlar, uning ortida yashiringan Abdulla Qodiriy "men"i, asarlar haqidagi muallif konsepsiyasini bunday nozik tushunish, hermenevtik doiraga solish uchun B.Karimovgacha qodiriyshunoslar qo'llagan tadqiqot metodlari ojizlik qilgan edi, albatta. Adabiyotshunoslikdagi muayyan turg'unlik yo'lsizlik muammosini to'g'ri anglagan B.Karimov yechimsizdek tuyuladigan shunday chigal muammolarga hermenevtik usulda yondashadi va milliy adabiyotshunosligimiz uchun muhim xulosalarni taqdim etadi. Bunday muhim xulosalariga xolislik ko'lamdorlik matnni analizlash va sintezlash, "talqinni talqin" usuliga tayanish, "butunni qism, qismni butun asosida tekshirish", "hermenevtik doira", poetik strukturalar ichiga kirish, badiiy-falsafiy umumlashtirish, nazariya va amaliyotni sintezlash singari ko'plab hermenevtik talqin yo'llarini sistemalashtirish orqali keladiki, bularning barchasi bugungi o'zbek adabiyotshunosligi uchun yangilikdir.

Germenevtika metodining olim tomonidan qodiriyshunoslik asosida milliy estetik tafakkur doirasiga olib kirilishi chinakam hodisa, milliy adabiyotshunosligimiz metodologiyasining yangilanishi desak to'g'ri bo'ladi.

Xullas, B.Karimovning "Abdulla Kodiriy va germenevtik tafakkur" deb nomlangan ushbu monografiyasi milliy mafkura va ma'naviyat asoslarini salmoqli darajada boyitishi, adabiyotshunoslik metodologiyasining takomillashuviga xizmat etishi, qodiriyshunoslik tarixi, buguni, istiqboli xaqida aniq ta'rif, tavsif, taxlil va tashxis berishi, ayniqsa, jahon nazariy-estetik tafakkuri standartlari darajasida ekanligi ayrim nuqtalarda zamonavi Sharq va G'arb adabiyotshunosligi ilmi uchun asos bo'ladigan fikr-qarashlarni o'zida namoyon etishi bilan yangi va o'ziga xosdir. Qolaversa, B.Karimov kelajak adabiyotshunosligimiz ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan teran ilmiy potensialga ega. Uning so'nggi yillari nashr etilgan "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Qodiriy nasri – nafosat qasri", "Ruhiyat alifbosi" singari o'quv qo'llanma, monografiya hamda ilmiy risolalari bizning bunday xulosaga kelishimizga to'la imkon beradi.

B.Karimov o'zbek adabiyotshunosligiga mustaqillik yillarida kirib kelgan, qatog'on qurbonlari ijodini o'rganishda istiqloq yillarida faol qalam tebratgan yosh olimlardan biri. U dastlab Vadud Mahmud ijodini yangi aspektlarda o'rganishga, adabiyotshunoslikda nazardan chetda qolib kelayotgan yozuvchi ijodining yangiliklarini kashf etishga kirishdi. Olimning "Abdulla Qodiriy" nomli monografiyasi, ma'lum darajada adabiy portreti mustaqillik yillarida Qodiriy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ishlar orasida eng salmoqlisi sanaladi. Bu kitobida muallif yozuvchining hikoya va qissalari ahamiyati, jumladan romanchilik taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari ilmiy asoslab beriladi. Olimning "Abdulla Qodiriy" monografiyasida yozuvchi ijodining chet ellarda o'rganilishi masalalariga ham to'xtalgan. Chet ellik olimlarning yozuvchi ijodini baholashdagi yetuk va kamchiliklarini umumlashtirishga harakat qilgan mazkur monografiyaning jiddiy yutuqlaridan biridir. B.Karimov ko'p marotaba chet ellarda ijodiy safarlarda bo'lgani to'g'risida matbuotda ko'p marotaba yozishdi. U qaysi davlatga bormasin,

u yerlarda Cho'lpon, A.Qodiriy, Fitrat ijodiga bo'lgan munosabat bilan qiziqqan va chet ellik olimlarning ishlari bilan tanishib tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri. Umuman , B.Karimov o'zbek adabiyotshunosligida A.Qodiriyijodining chet ellarda o'rganilishi bilan qiziqqan va shu yo'nalishda salmoqli tadqiqotlar yaratgan olim sifatida taniqlidir.

Muallifning "Abdulla Qodiriy germenevtikasi" kitobi uning qodiriyshunoslikdagi yirik muvafaqqiyati deb aytsak bo'ladi. Sababi shundaki, muallif o'zbek qodiriyshunosligi bilan jahon qodiriyshunosligi taqqoslab o'rganadi. Bu adabiyotshunoslikdagi, talqindagi yangi yo'nalish. Kitobni o'qigan har bir o'quvchi qodiriyshunoslikning taraqqiyot bosqichlari to'g'risida mukammal bilimga ega bo'la oladi. Biz ishonamizki, B.Karimov kelajakda ham qodiriyshunoslikdagi faoliyatini yana izchil davom ettiradi. Yozuvchi ijodi to'g'risida bundan ham salmoqli, ilmiy-nazariy saviyasi baquvvat kitoblar nashr ettiradi.

II BOB

ABDULLA QODIRIY IJODINING ADABIY ALOQALAR VA TA'SIRLAR YO'NALISHIDA O'RGANISH MASALALARI

2.1. Abdulla Qodiriy an'anlari turkman ramonchiligida

Adabiy ta'sir ancha murakkab masala. Ayniqsa, nasrda ta'sir belgilarini aniqlash oson emas. Bir adabiyotning ikkinchi bir adabiyotga, bir yozuvchining ikkinchi bir yozuvchi ijodiga ta'siri hamisha ham bo'rtib ko'rinavermaydi. Har bir milliy adabiyot yoki yozuvchi boshqa milliy adabiyot yoki yozuvchining ijodiy tajribalarini o'z milliy an'alariga moslashtirib foydalanadi. Ta'sir natijasida yozuvchida paydo bo'lgan adabiy o'zgarishlarni, o'ziga xosliklarning badiiy-estetik qonuniyatlarini ochish tadqiqotchi zimmasidagi mas'uliyatli vazifa. Buning uchun tadqiqotchi, birinchi navbatda, ta'sir ko'rsatgan yozuvchi bilan ta'sirlangan yozuvchining uslubini, ijodiy laboratoriyasini mukammal o'rganishi zarur. Ta'sirlangan yozuvchi ijodiga real hayotning ta'siri qanday? Yozuvchi asar yozish istagi qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgan. Yozuvchini asar yozishga ilhomlantirgan kuch nima? Ta'sirlangan yozuvchining «o'rgandim» yoki «ta'sirlandim» degan ijodkorga munosabati qanday? Ijodi bilan tanishmi? Asarlarini o'qiganmi? Bular to'g'risida biror fikr aytganmi? Bu savollarga javob topmasdan mavzu bo'yicha kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Adabiy ta'sir tekshirilganda yana bir muhim jarayoni unutmaslik kerak. Bu, ta'sirlangan yozuvchining hayot va ijod tajribasini, boshdan o'tkazgan voqealarini, ko'rgan, eshitgan turmush faktlarini o'rganish bilan bog'liq masala. Tadqiqotchi asarga tanlab olingan real voqelikni, obrazlarning milliy ruhini, xalq hayotining boshqa-da o'ziga xususiyliklarini teran his qilishi, yozuvchidan ham ko'proq bilishi lozim. Shundagina u muayyan asardagi adabiy ta'sir xususiyatlarini xolis va to'g'ri yoritadi. Adabiy ta'sir ijodiy musobaqaning bir ko'rinishi. U ijodiy xarakter kasb etsagina yozuvchiga foyda keltirishi mumkin. Shu masala bilan bog'liq yana bir mulohaza. «O'rgandi», «ta'sirlandi» degan biror adabiyot yoki yozuvchi ijodida

paydo bo'lgan har qanday yuksalishni ta'sirga bog'lab talqin etish hamisha ham to'g'ri bo'lavermaydi.

Turkiy tilda ijod qiluvchi ba'zi bir yozuvchilarda Abdulla Qodiriy ijodining bevosita ta'sirini sezish mumkin. Mashhur turkman yozuvchisi Xidir Deryayev shunday yozadi:

“Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani menda bir umrga unitilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan keyin menda turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish ishtiyoqi tug'ildi. Katta niyat bilan “Qismat” romani ustida ish boshladim”¹⁰.

Xidir Deryayev fikrini davom qildirib, Toshkenda KomVUZda o'qigan paytlarida “O'tkan kunlar”ni qayta-qayta o'qigani va yozuvchining san'atiga tahsinlar o'qigani haqida gapiradi. Abdulla Qodiriy bilan Xidir Deryayev oralaridagi ta'sir va o'ziga xoslik o'zbek adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot ham qilindi. Buni biz Filologiya fanlari doktori professor Karimboy Quramboyevning izlanishlarida guvoh bo'lishimiz mumkin. Tadqiqot natijasida voqealarni sirli bayon qilinishi, mustahkam bog'lay olish, kerak joylarda keskin burilishlarda bera bilish jihatidan, Xidir Deryayev Abdulla Qodiriy romanlaridan ta'sirlangani ma'lum bo'ladi. Biroq yana shu narsa ham aniqki, Xidir Deryayev “O'tkan kunlar”ni hech ham takror qilmaydi.

Hali hayotni romandek murakkab janrda tasvirlash an'anasiga ega bo'lmagan, realistik proza janri unchalik taraqqiy etmagan turkman adabiyotida X. Deryayevning birinchi marta romanga qo'l urushi va muvaffaqiyat qozonishi tasodifiy emasdi. Bu yutuqning asoslari, zamini bor edi, albatta. Turkman xalqining boy folklori, yozma adabiyot tajribalari, rus va qardosh adabiyotlarning ilg'or an'analari, ayniqsa, L. Tolstoy, M. Gorkiy asarlari, qolaversa, Abdulla Qodiriy romanlari yozuvchiga tayanch bo'lgan manbalar edi. O'qish, o'rganish, ijodiy izlanishlar o'z samarasini beradi. 30-yillarning birinchi yarmida turkman

¹⁰ X. Деряев. Ыкбал. Роман. Ашгабат. «Туркмендөвнешр», 1962, 8-бет.

adabiyotida birinchi roman paydo bo'ldi va u 1937-yilda "Qonli panjadan" degan nom bilan bosib chiqadi. Lekin roman ommaviy (15 ming nusxada) chop etilgan bo'lsa-da, kitobxonlarga yetib bormaydi, unga har xil siyosiy ayblar qo'yilib, bosmaxonaning o'zidayoq yo'q qilinadi, yozuvchi esa qatag'onga uchrab, yigirma yil qamoqqa hukm qilindi.

X. Deryayev qamoqdan ozod bo'lgandan so'ng (u 1957-yilda ozodlikka chiqadi) 1960-yilda romanni qayta nashr ettiradi. Turkman xalqi hayotini murakkab dramatik voqealar fonida tasvirlangan bu asarni kitobxonlar yaxshi kutib oldi, yozuvchiga ko'plab maktublar yo'lladilar. Muxlislar romanning davomiga qiziqayotganini ayniqsa, bosh obrazlarning keying taqdiri ularni juda qiziqtirayotganligini maktublarida hayajon bilan ma'lum qiladilar. Maktublar yozuvchiga ilhom berdi, ijodiy kuchiga kuch qo'shdi. Qisqa muddatda romanning ikkinchi, uchinchi kitoblari muxlislar qo'liga tegdi. 1971-yilda romanning oxirgi – to'rtinchi kitobi ham nashr etildi va u Davlat mukofoti bilan taqdirlandi, rus va bir necha qardosh tillarga tarjima qilindi. Roman asosida ko'p qismli badiiy film ham ishlandi.

"Qismat" yozilish uslubi, ta'sirchanligi, o'qilish darajasi jihatidan "O'tkan kunlar" romaniga yaqin. Yozuvchi voqealarini tanlash, roman mavzusi, g'oyasi va janrini belgilashda "O'tkan kunlar" romani tajribasiga tayangan. O'zbek yozuvchisi romanida tasvirlangan voqealar, xususan, bosh qahramonlarning achchiq taqdiri X. Deryayevni to'lqinlantirgan, o'z xalqining o'tmishiga nazar tashlashga undagan xuddi shunday voqealar, xuddi shunday taqdirlar o'tmishda turkman xalqining ham boshidan kechganligini yozuvchi ijodiy his qilgan va o'z xalqi o'tmishidan roman yozishni ko'ngliga tugib qo'ygan. Kumush va Ra'nolarning muhabbat taqdiri yaqin o'tmishda huquqi toptalgan Turkman ayollarining ayanchli qismatini badiiy yoritishda yozuvchiga ilhom berganini quyidagi fikrlaridan ham bilish mumkin: "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarining bosh qahramonlari Kumush, Ra'noga o'xshagan o'zbek qizlari boshdan kechirgan

qiyinchiliklari Turkman qizlarining boshidan ham ham kechgan-ku! Degan fikr qalbimga singib qolgandi. Ana shu ta'sir natijasida "Qonli panjadan" degan roman yozdim va u 1937 yilda chop etildi".¹¹

A.Qodiriy romanlaridagi XIX asr o'zbek hayoti tasviri X. Deryayev ham o'z xalqining tarixi haqida biror asar yozish istagini uyg'otadi. Kumush, Ra'nolarning taqdiri biln bog'liq voqealar Turkman yozuvchisini to'lqinlantiradi va Uzukjamol obrazini yaratishda A. Qodiriy tajribasiga tayanib qalam tebratadi.

Adabiy jarayonda shunday asarlar bo'ladiki, uni o'qishingiz bilanoq qalbingiz turfa tuyg'ular bilan boyiydi. Bunday asarlar, ayniqsa, ijodkorlar uchun katta ilhom manbai. K. Poustovski yozganidek: "Har bir ijodkorga ilhom beradigan, ruhii ko'taradigan bir necha sahifasini o'qishing o'zi kifoya, o'zing ham yozging kelib qoladi".

Lekin bundan muayyan asar faqat boshqa bir yozuvchining asari ta'sirida, shunga taqlidan yoziadi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Har bir talent konkret hayot sharoitida shakllanadi, yuksaladi. Xamma sohada ijodkorning ustoz, avvalo, hayot bo'ladi. Yozuvchi dastlab hayotdan oziqlanadi, hayot hodisalaridan ilhom oladi. Bu ta'sir natijasida shoir yoki yozuvchida badiiy asar g'oyasi tug'iladi. Ikkinchi bir yozuvchining ta'siri ijodkordagi imkoniyatni ishga solib yuborishda, ilhomni istakka aylantirishda muhim turtki xolos.

Masalan, yozuvchi yaratmoqchi bo'lgan asarining materialini hayotdan olsa, unga o'z adabiy an'analari bilan sayqal beradi, toblaydi, boshqa bir yozuvchining tajribasi esa ijodkorga bu ishda ma'naviy ko'makchi vazifasini o'taydi. "O'tkan Kunlar" romanining X. Deryayev ijodiga ta'siri masalasiga shu nuqtadan yondashilsa, to'g'ri bo'ladi.

A.Qodiriy otasidan eshitgan va yozma manbalarda uchragan voqealar ta'sirida yaqin o'tmish mavzuida tarixiy roman yozishga ahd qiladi. Lekin bu ijodiy niyat birdaniga amalga oshmaydi. Garchi "O'tkan kunlar" romanini yozish fikri adibda 1919-1920-yillarda tug'ilgan bo'lsa ham, yozishga biroz keyinroq

¹¹ «Эдебият ве сунгат» 1962., 21 ноябрь.

kirishgan. Yozuvchi mavzu tanlagan, mavzuga tegishli materiallarni ham o'rgangan. Romanning voqealarini, obrazlarini uzoq vaqt hayolida pishitgan. Uni ifoda qilish yo'llarini izlagan. Shunday bir payt kelib qoladiki, tasodifan uchrab qolgan bir kishining hayot yo'li yozuvchi o'ylab yurgan ijodiy niyatini qudratlantirib yuboradi. Roman uchun turtki bo'lgan o'sha voqeani adib o'g'li Habibulla Qodiriyga quyidagi mazmunda gapirib bergan: "tarixiy voqealar" boshimda shu qadar ko'p, go'yo qaynar, menga tinchlik bermas edi. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog'ozga tushirishni tasavvur qila olmas edim. Bir kuni otamni ko'rgani eshak minib, shahardan bir chol mehmon bo'lib chiqdi. Mehmonni men tanimadim. U otamning eski qadrdoni ekan. Ular suhbat qilarkan, quloqlar og'irlashib qolgani uchun bir-birlarining so'zlarini yaxshi eshita olmas edilar. Shu sababli menga ular o'rtasida tilmoch bo'lib o'tirishga to'g'ri kelardi. Otam mehmondan so'radi: Andijondagi xotiningizdan necha bolangiz bor? Ularning suhbatidan men shuni angladimki, bu mehmon toshkentlik bo'lib, u yerda ko'p yillar istiqomat qilgan. Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo'lgan va keksaygach, o'z shahriga qaytib kelgan ekan. Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday, yozmoqchi bo'lganim "O'tkan kunlar" romanining shaklini chizib berganday bo'ldi".¹²

"Qismat" romanining yaratish tarixi, ya'ni hayotiy materialdan badiiy haqiqat yaratishi usuli ham shunga o'zshash. "O'tkan kunlar" X. Deryayev qalbiga ijodiy niyat "urug'i"ni tashlaydi, bu "urug'" uzoq vaqtlar yozuvchiga tinchlik bermagan. Yozmoqchi bo'lgan romanining voqealarini, qahramonlarini uzoq vaqtlar xayolida saqlab yursa ham tezda roman yozishga kirisha olmagan. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, yerga tashlangan urug' tez unib, ko'chatga aylansa, ba'zan uzoq vaqtlar yer va quyoshning tobini oladi. Xuddi shunga o'xshash yozuvchidagi ijodiy niyat urug'ining unib chiqishi uchun real voqea, hayot materiali kerak edi.

¹²A. Қодирий. «Ўткан кунлар» романининг ёзилиш тарихидан. «Шарқ юлдузи», 1965., 11 сон.

Yozuvchi tanlagan mavzusiga tegishli hayotiy faktlarni izlay boshlaydi, ko'ngliga tugib qo'ygan g'oyaviy maqsadga mos keladigan insonlar hayotini, taqdirini kuzatib yuradi. Kunlarning birida u xuddi shunday g'oyaga xizmat qilishi mumkin bo'lgan bir faktiga duch kelib qoladi. Tasodifan uchragan bu ayolning hayot yo'li, achiq qismati yozuchidagi ijodiy niyatining ro'yobga chiqishiga yordam beradi. O'sha real voqeani X.Deryayev ushbu satrlar muallifiga quyidagi mazmunda gapirib bergan edi: yozuvchi kunlarning birida Marv shahridagi shifoxonalardan biriga biror sabab bilan borib qoladi. U yerda o'g'ir ruhiy holatda, yuzini ikki qo'li bilan berkitib, boshini pastga egib o'tirgan Turkman ayoliga ko'zi tushadi. U yerda og'ir ruhiy holatda yuzini ikki qo'li bilan berkitib, boshini pastga egib o'tirgan Turkman ayoliga ko'zi tushadi. Uning qismatida biror musibatli voqea ro'y bergani tashqi ko'rinishidan sezilib turgan. Bu ayol taqdiri yozuvchini juda qiziqtiradi. Undan ko'ngil so'rab, dardiga sherik bo'lgisi keladi. Ayolning oldiga boradi va suhbatlashadi. Ayol boshiga tushgan musibat haqida so'zlab beradi. Uning qizi og'ir sharoitdan qutilishning o'limdan boshqa chorasini topolmasdan o'zini daryoga tashlagan. Hozir shu shifoxonada og'ir ahvolda yotibdi. X. Deryayev qizning onasi bilan qiz yotgan palataga kiradi. Qiz uzun sochli, nozik yuzli, juda go'zal ekan. Faqat uning rangsiz chehrasida boshiga tushgan og'ir falokatning asorati sezilib turgan.¹³ Yozuvchining hikoya qilib berganiga qaraganda, o'sha qiz keyinchalik "Qismat"dagi Uzukjamol obraziga prototip bo'lgan. X.Deryayev "Qismat" syujetiga asos bo'lgan yana bir voqeani o'sha uchrashuvimizda quyidagicha so'zlab bergani hamon esimda deya hikoya qilib bergan. Filologiya fanlari doktor, professor Karimboy Quromboyev: Marv qishloqlaridan birida bir yetim qiz yashagan. U nihoyatda go'zal ekan. Qizni turmushga chiqarishibdi, lekin ko'p o'tmay uning eri vafot etadi. Qiz reining uyidan qarindoshlarinikiga qaytib keladi. Yaqinlari uni yana katta qalin evaziga boshqa birovga sotmoqachi bo'lishadi. Orada janjal, da'vo chiqqach, beva ayolni

¹³ 1970 йилнинг 26 майида Хидир Деряев билан К. Курамбоев Ашхабодда болган суҳбатидан.

muammo hal bo'lgunga qadar qishloq eshonining uyiga olib borib qo'yishadi. Ayol ko'p o'tmay sevgan yigiti bilan til biriktirib eshonning uyidan qochadi.

Bu real faktlar romanning birinchi kitobidagi uzukjamol taqdiri bilan bog'liq voqealarni eslatadi. Qiz uchun Murod og'a oilasi, archin Mamad bilan Bekmurodboylar o'rtasidagi da'vo janjallar, uzukning vaqtincha Saidahmad eshonning uyida saqlanishi, bu yerdan Berdi bilan Ashxabodga qochib ketishi, roman oxirida o'zini ikki ayol taqdiri muhim va qiziqarli bo'lganligi uchun ham muallif uni asarga ba'zi o'zgartirishlar bilan asos qilib olgan va romanning murakkab ichki syujetiga moslashtirgan. Dramatizmni kuchaytirish uchun bir qancha to'qima epizodlar yaratilgan. Shifoxonadagi qizning qismati, beva juvoning boshiga tushgan kulfatlar yozuvchiga "Qismat" romanining "shaklini chizib bergan", uning syujetini shakllantirishda hayotiy material bo'lib xizmat etgan.

X.Deryayev ijodining o'ziga xos tomonlaridan biri ham shundaki, u real voqaelikka asoslanadi. Yozuvchi romanda tasvirlangan voqealarni turkman hayotidan oladi. Ko'rgan, kuzatgan turmush hodisalarini badiiy umumlashtirilgan. Shu boisdan ham "O'tkan kunlar" bilan "Qismat" hayot materiali jihatdan biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Ikki adib ham o'zlari mansub real voqaelikni o'zicha idrok etib, o'z g'oyaviy niyatiga mos keladiganini o'z xalqi turmushidan tanlagan va o'ziga xos talqin etgan.

X. Deryayev hayotni kuzatgan, o'rgangan, material to'plagan. "O'tkan kunlar" ta'siri o'rganilgan materialni badiiy asar shakliga solish istagini kuchaytirgan. Yozuvchining ko'nglida aylanib yurgan g'oyalarini toshtirib yuboradi. V.G.Belenskiy bu jarayonni obrazli shaklda quyidagicha ifodalagan edi: "Ulug' shoirning ikkinchi shoirga ta'siri u yaratgan poeziyaning boshqa shoirda ko'rinishda emas, balki uning boshqa shoirda boshqa shoirda bo'lgan, lekin harakatsiz yotgan kuchni o'zi bilan olib kelmaydi. Ulug' shoirlarning ta'siri ham

xuddi mana shu quyosh nuri singari mavjud, lekin harakatsiz kuchlarni ishga solib yuboradilar”¹⁴.

“O’tkan kunlar” bilan “Qismat” romanlarida tasvirlangan voqealar ikki xil tarixiy sharoitda ro’y beradi. Har birida hayot o’z sharoitiga moslashtirib yoritilgan. Tarixiy voqealarni tasvir etishda ham romanlarda syujet o’xshashligi yo’q. “O’tgan kunlar” o’tmish haqidagi tarixiy roman. Yozuvchi XIX asrning birinchi yarmidagi o’zbek xalqi hayotini ifodalashni nazarda tutgan. Asarning bosh g’oyasi moziyda zulmat va jaholat insonlarni, ilg’or fikrli kishilarni barcha huquqlardan mahrum qilib, og’r musibatlarga duchor etganini ko’rsatishga qaratilgan. Romanda o’zbek xalqi hayotiga ta’ziyq o’tkazgan ijtimoiy tartiblarning, ba’zi axloqiy normalarning salbiy oqibatlari muhabbat mavzusi fonida qoralanadi. Muhabbat “O’tkan kunlar” romanining yetakchi mavzulardan biri. Yozuvchi yangi davrning Farhod-Shirinlari, Tohiru Zuhrolari bo’lgan Otabek va Kumushbibi muhabbati taqdiri misolida feodal jamiyatda shaxs erkinining poymol etilishini, insonning baxt uchun intilishlarining barbod bo’lganini ko’rsatishga alohida e’tibor beradi.

“Qismat”ning g’oyaviy yo’nalishi “O’tkan Kunlar”dan birmuncha boshqacha. Romanga asos bo’lgan voqea XIX asr hayoti emas XX asrning boshlaridagi turkman xalqining zulmga qarshi kurashidir. Bu kurashda Uzukjamol, Berdi kabi oddiy xalq vakillarining o’zligini anglash jarayoni ko’rsatish yozuvchining diqqat markazida bo’ladi. Agar “O’tkan kunlar”da Otabek va Kumushning sevgi tarixi roman syujetida yetakchilik qilsa, “Qismat”dagi Berdi kabi Uzukjamol obrazlariga tarixning katta ijtimoiy-siyosiy ma’suliyat yuklangan. Manfaatlari biribirlariga zid tabaqalar o’rtasidagi murosasiz kurash maydonida ular faol harakat qiladilar. Berdi bilan Uzukjamol muhabbati ham mana shu konflikt olovida chiniqib boradi. “O’tkan kunlar” romanidagi konflikt boshqacha xarakterga ega. Har ikki romandagi Otabek va Berdi, Kumushbibi va Uzukjamol xarakter e’tibori bilan boshqa-boshqa odamlar. Otabek va Kumushbibi hayot faqat “yaxshilik” va

¹⁴ В.Г.Белинский. Собр.соч. в трех томах, Том 3., 1947. Стр 334.

“yomonlik”dan iborat deb o‘ylaydilar. Berdi va Uzukjamol ana shu “yaxshilik” va “yomonlik” jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikda deb tushunadilar. Agar Otabek va Kumushbibi ko‘p holatlarda o‘z baxtlari, muhabbat taqdirlari oddiy xalq bilan uyg‘unlikda deb biladilar. Bu ikki asarning yana bir takrorlanmas o‘zgachaligi shundaki, ular milliy zaminda tug‘ilgan. Obrazlar chinakam milliy xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Otabek ham, Kumush ham, Berdi bilan Uzukjamol ham milliy an’analar muhitida voyaga yetganligi uchun ularning dunyoqarashida, xarakterlarida o‘z xalqi xarakteriga xos belgilar mujassam bo‘lgan. Faqat bosh obrazlar talqinidagi emas, romanlaridagi har bir epizodik obrazning ong va dunyoqarashida, voqealar tasvirida ham milliy kolorit ruhi sezilib turadi. Bular, shubhasiz, romanlarning o‘ziga xos milliy jilolari va katta yutug‘i.

“Qismat” romani “O‘tkan kunlar”dan xarakter yaratish san’ati jihatidan ham farq qiladi. Ma’lumki, Abdulla Qodiriy Otabek va Kumushbibi obrazlarini statik holda talqin etadi. Yozuvchi Otabek xarakterini romanning boshidan oxiriga qadar bir meyorda ushlab turadi. Asarning dastlabki ikki bobida Otabekning kim va qanday axloqiy xislatlarga ega shaxs ekanligi bilan kitobxon tanishtiriladi. Keyingi boblarda Otabek dunyoqarashidagi biror jiddiy o‘zgarish sodir bo‘lgani sezilmaydi. “O‘tkan kunlar”ning boshi bilan davomi va ayniqsa, oxiri bir-biridan faqat shu jihatdan farq qiladiki, qahramonlarning o‘quvchig ma’lum ichki dunyosi borgan sari mshkulroq va fojialiroq vaziyatlarda ochila boradi. Yozuvchi ko‘pincha voqealarni dramatik ruhda rivojlantirish usulini qo‘llaydi.

X. Deryayev “Qismat” romanida voqealarni xarakterlar rivoji bilan uyg‘unlikda tasvirlaydi, bosh qahramonlarni o‘sislarini, o‘zligini anglash va oodlik uchun kurashchilarga aylanish jarayonlarini bosqichma-bosqich ko‘rsatishga alohida e’tibor beradi. Kambag‘al Uzukjamol bilan oddiy cho‘pon Berdi ongida uyg‘onish, kurashchiga aylanish jarayoni keskin to‘qnashuvlar maydonida ko‘rsatiladi va shu usul bilan ular xarakterlarning chiniqishini badiiy dalillaydi.

“O‘tkan kunlar” va “Qismat” romanlarining qiyosiy tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, ikki yozuvchi ham mavzuni, materialini o‘z xalq hayotidan tanlagan. Romanlarda tasvirlangan voqealar davr va ijtimoiy-tarixiy sharoit nuqtaiy nazaridan biri ikkinchisidan katta farq qiladi. Va bu fakt “O‘tkan kunlar” va “Qismat” romanlari tashqi, syujet jihatidan bir-biriga o‘xshamaydi deb xulosa chiqarishga asos beradi. Bu ikki roman, bizningcha, badiiy uslub va usullar jihatidan o‘zaro yaqin. X.Deryayev real voqealikka badiiy haqiqatga aylantirishda “O‘tkan kunlar” syujetidan emas, badiyatidan, A. Qodiriyning yozuvchilik mahoratidan ta’sirlangan. Ya’ni tasvir davomida qahramonlar taqdiridagi dramatik holatlarni keskinlashtirib berish, jiddiy konfliktlar yaratish, hayotning murakkab, ziddiyatli nuqtalarini tasvirlashda, roman qahramonlari qismatiga o‘quvchining qiziqishini ortirishda “O‘tkan kunlar”da A.Qodiriy qo‘llagan ba’zi adabiy usullarga murojaat etgan.

“O‘tkan kunlar” va “Qismat” romanlari uzoq va yaqin o‘tmish tarixini badiiy talqin etish jihatidan ham o‘zaro farq qiladi. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”ga uzoq moziy kartinasini tanlagangandi. Aslida yozuvchining maqsadi, tarixning “eng kir va qora kunlari”ni rad etish orqali yangi hayotni tasdiqlash edi. A.Qodiriy romanida bu g‘oyani yuksak mahorat bilan aks ettirdi. X.Deryayev “Qismat”da bu an’anani davom ettiradi, rivojlantiradi. Turkman xalqining yaqin tarixidagi murakkab turmush tarzini qoralaydi, ozod hayot qurish yo‘lidagi kurashini quvvatlaydi, yangi hayotning tantanasini ko‘rsatadi.

“O‘tkan kunlar” ham, “Qismat” ham har ikki adabiyotda realistik roman janrini boshlab bergan asarlar. Agar “O‘tkan kunlar” A.Qodiriyning birinchi o‘zbek romannavisi sifatida mashhur etib, uni O‘rta Osiyo va Qozog‘iston, hatto dunyoning eng ko‘zga ko‘ringan yozuvchilari qatoriga olib chiqqan bo‘lsa, “Qismat” bilan X.Deryayev turkman realistik romani janriga asos soldi. “Qismat” turkman romanchilgining katta yutug‘i sifatida uning hozirgi taraqqiyot bosqichida salmoqli o‘rinni egallab turibdi.

X. Deryayev “Qismat” romani bilan o‘zbek kitobxonlari o‘rtasida keng tanildi. Uning birinchi va ikkinchi kitoblari taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilib, ikki marta katta nusxalarda nashr etildi. Roman asosida O‘zbekiston televideniya sinining ko‘p qismli telespektakl tayyorlab, tomoshaminlarga namoyish qilingani, roman muxlislarining doirasini ilhom olib yaratilgan bu asarning muallifi Xidir Deryayevni esa o‘zbek adabiyotining yaqin do‘sti, o‘quvchilarining sevimli yozuvchilaridan biriga aylantirdi.

2.2. fasl. Yozuvchi ijodining rus va qardosh xalqlar adabiyoti bilan aloqadorlikda o‘rganilishi

Xalqlar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik aloqalarini o‘rnatish, muttasil siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash uchun kurash olib borish jamiyat taraqqiyotining hamma asr, hamma bosqichlarida progressiv namoyondalari uchun oliy maqsad bo‘lib kelgan. Jamiyat tarixida uzluksiz davom etib kelgan intilishlar kurashlar, o‘zgarishlar natijada eski, tor, millatlarning qobiqqa o‘ralib qolgan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rnini asta-sekin millatlarning o‘zoro munosabatini keltirib chiqaradigan va ularni bir-biriga bog‘laydigan ishlab chiqarish munosabatlari egallay boshlagan. Bu hodisa o‘-o‘zidan insonlarning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etadi, biron-bir xalq o‘rtasida paydo bo‘lgan eng yaxshi, eng ilg‘or ma’naviy fazilatni tor doiradan chiqarib umuminsoniy an’anaga aylantiradi. Zotan, insonning sofdil ilg‘or qismi doimo ana shu umuminsoniy fazilatlarni keng miqyosda rivojlantirishga, binobarin jamiyatda do‘stlik, birodarlik aloqalarini mustahkamlashga intilib kelgan.

Umuman, adabiyotlar o‘z taraqqiyoti tarixida o‘zaro bir-biri bilan xilma-xil formalarda aloqada bo‘lganlar. Shuning uchun ham adabiyotlar tarixini ma’lum ma’noda xalqlarning o‘zoro aloqalari tarixidan iborat deyish mumkin. Lekin bu, har xil davrda har xil formada davom etib, doimo bir-birini boyitgan, bir-birining taraqqiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatib kelgan.

Barcha qardosh xalqlar adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalarga yondoshsak,

ularning bir-birlariga naqadar ijobiy va samarali ta'sir ko'rsatayotganining guvohi bo'lamiz. Barcha qardosh xalqlarning milliy adabiyotning samarali ta'siri qardosh xalqlar adabiyotining g'oyaviy mundarijasinni boyitdi, tematik doirasini kengaytirdi, uning oldida yangi taraqqiyot ufqlarini ochdi.

O'zbek xalqining boshqa xalqlar, jumladan, rus xalqi bilan iqtisodiy, siyosiy va adabiy aloqalari haqida fikr yuritilsa, bu juda qadimiy davrlarga borib taqaladi.

O'zbek – rus adabiy aloqalari XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib – Rossiya davlatining O'rta Osiyoni bosib olib unda o'zining mustamlakasini o'rnatgandan keyin adabiy aloqalar yanada aktiv tus oldi. Shu davrda sharq xalqlari rus tili va adabiyotiga qiziqish uyg'ondi.

XIX asr oxirlari va XX asrning boshlarida o'zbek yozuvchilarning ilg'or nomayondalari ijodiga rus adabiyoti va madaniyatining naqadar samarali ta'sir ko'rsatganligi, shu davrda ilg'or o'zbek ziyolilari Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy voqealar va uning madaniy taraqqiyotiga qanchalik yaqin bo'lganliklari ma'lum. Bu tarixiy voqealarning hammasi o'zbek xalqi hayotiga progressiv hodisa sifatida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zining eng qadimiy va boy tarixiga ega o'zbek adabiyoti ana shunday tarixiy bir sharoitda rus adabiyoti va u orqali jahon adabiyotining eng ilg'or namunalaridan bahramand bo'lish, binobarin o'z demokratik xususiyatlarini rivojlanishi tufayli yanada ijodiy kamolotga erishdi. O'zbek adabiyoti g'oyaviy mundarijasi va badiiy formalari jihatdan yuqori bosqichlarga ko'tarildi.

Ajoyib ma'rifatparvar Sottorxon, Ishoqxon, Ahmad Donish, buyuk demokratik shoir Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar o'zbeklar elida birinchilardan bo'lib rus adabiyoti va madaniyatini zo'r berib targ'ib etdilar. Bu sohadagi qoloqlik va eskilik hayot illatlarini mahorat bilan fosh qildilar. Hamza revolyutsiyadan ilgariyoq rus tili va madaniyatini o'rganishga harakat qilgan edi. Unga to'sqinlik qiluvchilarga qarshi maqolalar ham yozgan edi. Jumladan, 1914 yilda "Sadoiy Farg'ona" gazetasining 25-oktabr sonida chiqqan maqolasida

shunday gap bor: “Ajabo!.. Ruscha o‘quv va o‘qituvchi o‘ziga ulug‘ korahatlardan sanalgan u zotlarning rus va boshqa millat boylariga xizmat qiluvga or-nomuslari kelmay, alarga tavoze qiluvni na uchun korahatlardan hisob etmaslar ekan!”

Rus va o‘zbek adabiy aloqalari Oktabr inqilobidan keyingi dastlabki yillarda (20-yillarda) yanada keng miqyosda rivojlana boshladi. O‘zbek adabiyotining ilk vakillari bo‘lmish atoqli namoyondalar, butun jahon progressiv adabiyotining buyuk namoyondalari ijodi bilan ham rus adabiyoti orqali tanishdilar. Binobarin bu buyuk siymolarning har biri faqat o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga kata hissa qo‘shibgina qolmay, balki mamlakatimizdagi barcha qardosh xalqlar hamda butun xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti va madaniyatiga ham o‘z ta’sirlarini ko‘saatib kelmoqda.

O‘zbek va rus adabiy aloqalari 20-yillarda XIX asrning oxiridagiga qaraganda beqiyos keng miqyosda rivojlanib ketdi. Chunki bu vaqtda butun insoniyat tarixida birinchi marota bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki ijtimoiy Sistema paydo bo‘lgan va endi rus milliy madaniyatidagi demokratik madaniyat elementlar mahkam oyoqqa turib o‘z pozitsiyasini tobora mustahkamlamoq uchun keng sharoit vujudga kelgan edi.

20-yillarning boshlaridayoq gazeta va jurnallarning sahifalarida o‘zbek yozuvchilarining o‘z asarlari bilan birga tarjima asarlar – rus va jahon adabiyotidan ayrim namunalar paydo bo‘la boshladi. Tarjima ishlari adabiyotimizga ikki yoqlama yordam berar edi: birinchidan, rus adabiyotidan tarjimalar qilingan proza va drama asarlari inqilobdan ilgari juda kam taraqqiy etgan mazkur janrning ancha bo‘sh o‘rnini to‘ldirib turadi, ikkinchidan esa, yosh o‘zbek yozuvchilariga buyuk ustozlarning mahorat maktabidan o‘rganish imkoniyatini berar edi. Adabiy aloqalarimizning rivojlanishida badiiy tarjimaning naqadar kata ro‘lini akademik Komil Yashin ham alohida ta’kidlab, shunday deydi: “Adabiy aloqalarimizning mustahkamlanishida badiiy tarjima san’atining roli alohida. O‘tgan davr ichida o‘zbek kitobxonlari rus va G‘arbiy Yevropa hamda sharq xalqlari adabiyotlarining

eng nodir asarlari bilan tanishishga muyassar bo'ldi, qardosh xalqlar adabiyotlarining durdonalari ma'naviy boyligimizga salmoqli hissa qo'shdi. O'z navbatida esa o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlari do'stligimizga ma'naviy ozuq bermoqda... Demak adabiy aloqalarimiz qancha mustahkamlansa, adabiyotlarimiz shunchalik tez rivojlanadi, gullab yashnaydi. Shuning uchun adabiy aloqalarimiz sohasidagi traditsiyalarni davom ettiramiz. Adabiy aloqalarimiz – adabiy aloqalarimiz"¹⁵.

20-yillarda O'rta Osiyo va Qozog'iston yozuvchilar, shu jumladan, o'zbek yozuvchilar tatar, boshqird, ozarbayjon, yozuvchilarning she'r va hikoyalarini, dramatik asarlarini o'qish, ularning eng yaxshi fazilatlarini o'zbek milliy an'analarga mos ravishda o'zlashtirish orqali ham rus adabiyotlari tajribalarini o'zlashtira boradilar. Bu narsa yurtimizda, jumladan, o'zbek va tojik adabiyotlarida zaif rivojlangan janrlarni – badiiy prozaning hikoya, povest, roman, kabi yirik janrlari hamda dramaturgiyaning tezda shakllanishi va rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu janrlarda garchi inqilobgacha ba'zi namunalar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ular hali bizning hozirgi tushunchamizdagi proza yoki drama darajasida emas edi.

O'zbek yozuvchilari rus adabiyoti namunalarining asl nushasini o'qib, undan bevosita foydalanadigan, uni o'zlari tarjima qiladiga bo'lganlaridan so'ng bu adabiyot t'ribalarini chuqurroq egallaydigan bo'lib qoldilar.

20-yillarda Hamza, Ayniy, Abdulla Qodiriy, va boshqa yozuvchilar ijodiga bo'lgan rus adabiyotining g'oyaviy-estetik ta'siri naqadar zo'r ijobiy natijalar bergani ma'lum. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu ta'sir adabiyotimizning milliy o'ziga xoslik xususiyatlariga, uning ilg'or an'analarga hech qachon xalal bergan emas, binobarin eng yaxshi milliy xususiyatlarni keng miqyosda ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ilg'or yozuvchilar rus adabiyoti ta'siridan o'z ijodlarining individual xususiyatlarini saqlagan holda milliy alomatlarini yanada

¹⁵ «Шарқ юлдузи»б 1964б 7-сон, 10 – 11- бетлар.

chuquroq, yanada ravshanroq ro'yobga chiqarish uchun foydalanadilar. Har bir yozuvchi boshqa talantli yozuvchilardan o'rganadi. O'zidan buyukroq yozuvchining g'oyaviy-estetik tajribalari hali yosh adabiyotning ijodiy kuchlarini mustaqil ravishda o'sish va kamol topishini tezlashtiradi. Bu masalani Belinskiy ham buyuk shoirning boshqa shoirlarga bo'lgan ta'siri bu shoirning poeziyasining boshqa shoir poeziyasida aks etishidan iborat emas, balki shu boshqa shoirlarning o'z quvvatini ishga solishdan iborat ekanligini ko'p bora takidlagan edi.

Abdulla Qodiriy Sharq mumtoz yozuvchilarining ijodini chuqur o'rganish bilan birga rus va g'arb adabiyoti mumtoz adiblari asarlarini ham, zo'r havas bilan o'qigan, ulardan ijodiy foydalangan edi. A. Qodiriy dastlab rus adabiyoti namunalari bilan til jihatdan bir-biriga yaqin turgan xalqlar adabiyoti orqali tanishadi. Keyinchalik esa rus tilini yaxshi o'rganib, bu tildagi asarlarni ham zo'r havas bilan o'qigan, ulardan eng yaxshi namunalarni ozbek tiliga tarjima qiladi. Gogolning "Uylanish" pessasi, Chexovning "Xomeleon" hikoyasi shular jumlasidandir.

Rus mumtoz adabiyoti A.Qodiriy ijodida realistik tendensiyalarning rivojlanishiga katta yordam berdi. U hatto badiiy asarda jonli obrazlar yaratish, obrazlarni haqiqiy xarakter darajasiga ko'tarish, so'z tanlash va san'atkorning so'zda hassaoslik masalalari kabi adabiyotning tub masalalarida Chexovdan, L. Tolstoydan qanday o'rganish kerakligi haqida maxsus maqolalari bilan matbuotda chiqib turdi.

A. P. Chexov ijodidan ilhomlangan A. Qodiriy "Mayda hikoyalar ustasi Chexov so'zi to'g'risiga kelganda haddan tashqari xasis. Ortiqcha so'zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi... Uning hikoyalarida so'z isrofgarchiligiga sabab bo'ladigan ortiqcha detallar ham bo'lmaydi... Detallar (voqeani tashkil qiladigan voqeachalar)" ham o'zi yolg'iz qolib keraksiz so'z bo'lib qolmaydi..." deb yozgandi.

U Chexovning san'atiga, so'zda ixchamligiga, xarakterlar yaratish va

ularning individual xususiyatlarini ochiga naqadar ustaligiga qoladi va buning isboti uchun Chexovning “Xameleon” hikoyasini to‘la tahlil qilib chiqadi, uning ijodidan qanday o‘rganish kerakligini konkret dalillar bilan ko‘rsatib beradi. Maqolani quyidagi xulosalar bilan yakunlaydi: “Xoameleon” hikoyasining biron so‘zini chiqarib tashlash yoki biron so‘zini qo‘shish mumkin bo‘lmaganligi, Chexovning so‘zga naqadar diqqat qilganligini ko‘rsatadi”.

Albatta, A. Qodiriy ijodiga rus adabiyotining ta‘sirini ko‘rsatish uchun bu faktlar yetarli emas, bu katta va muhim bir pratsessning mayda detallarigina bo‘lishi mumkin. A. Qodiriy rus klassik adabiyoti xazinasidan yetuk realistic prinsplarni o‘zlashtirib, obrazlarning real holatlarini chuqur ifodalab, ularning har biriga xos ifodali til iboralarini topib berib, xullas, san’atkorlik mahoratini yuksaltirishda ijodiy foydalanganligi ko‘pchilikka ma’lumdir.

Adabiy aloqalar masalani tekshirishda yozuvchilarning ijodiy o‘qish va o‘rganish sohasidagi xizmatlarini obyektiv ravishda izohlab berish, o‘ziga xos orginal bo‘lish talab qilinadi.

Ma’lumki, 20-yillarning boshlarida, adabiyot maydonida ko‘proq keksa avlod ish ko‘rar edi. Bularning ko‘pchiligi oktabr to‘ntarilishidan oldinroq anchamuncha ko‘zga ko‘rinib qolgan edi. Keks avlodlarning ko‘pchilik qismi eski, qoloq ananalardan voz kechibgina qolmasdan, butunlay sho‘ro tuzumiga o‘tdi. Bir qismi esa eskilik ta‘sirida bo‘lib, uni yangi sharoitga moslashishga urindi. Shunday bir murakkab sharoitda ilg‘or yozuvchilarning bor kuchi o‘zbek adabiyotini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan edi.

Ma’lum bo‘layaptiki, A.Qodiriyning buyuk yozuvchi, yirik romannavis bo‘lib tanilishida rus va jahon adabiyotining roli katta bo‘lgan. M.Gorkiy, L.Tolstoy romanlari, hikoyachiligida A.Chexov hikoyalari yozuvchi uchun katta maktab bo‘lgan. Romanchilik tajribasida esa arab yozuvchisi J.Zaydon romanlari o‘sish o‘rganish maktabi bo‘lganini yozuvchining o‘zi ham bir necha marotaba ta’kidlab aytgan. Demak, A.Qodiriyning romannavis, hikoyanavis sifatida

shakllanishida rus va jahon adabiyotining ahamiyati katta bo'lganligini yana bir marta e'tirof etamiz.

III BOB

ABDULLA QODIRIY VA JAHON ADABIYOTI

1-fasl. Jahon adabiyotshunoslari Abdulla Qodiriy ijodi haqida

XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalarining ijodi ba'zan sobiq ittifoq olimlari, ba'zan rus olimlari tomonidan o'rganildi; maqolalarida, xotiralarida e'tiroflari berildi. Bunday e'tiroflar, xususan, Qodiriyshunoslik doirasidagi fikr-mulohazalarda ko'proq o'zbek romanchiligining maydonga kelishi katta voqea ekani aytiladi.

Masalan, tatar olimi Zarif Bashir 1929 yili Qozonda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti» kitobida: «Uning 1923 yildan so'ng bosilgan «O'tkan kunlar» nomli zo'r bir romani uch bo'lim bo'lib nashr etildi. Mundarijasi Xudoyorxon diyoridan olib yozilgan bu romanni o'qigan chog'ingda, o'zingni butunlay shu diyorning qaxramonlari orasida his qilasan...», degan satrlar bor¹⁶. Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezovning: «Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi...», degan e'tirofini ko'pchilik yaxshi biladi. Shu singari mulohazalar boshqa qardosh millat yozuvchilari tomonidan ham aytilgan¹⁷. Bunday adib novatorligini, ustozligini ulug'lovchi fikrlar o'zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlarga juda hamoxangdir. Shu bois, aynan qodiriyshunoslikka oid nisbatan o'zgacha talqinlar bor-yo'qligini kuzatish niyatida xorij olimlari tomonidan bitilgan manbalarni imkoni qadar bir sidra ko'zdan kechiramiz. Zotan, sobiq sovet mafkurasi hukmronlik etib turgan yillarda Fitrat va Cho'lpondek zabardast adiblar xususida xorijda qator e'tiborli maqolalar yuzaga kelgan edikim, bu xususda ilmiy jamoatchilik muayyan tasavvurga ega bo'ldi. Mudhish qatag'on qurbonlari bo'lgan bu ijodkorlarning shon-shuhrati 20-30 yillardayoq turk dunyosiga ma'lum edi. Shu sabab ular xususidagi fikr-mulohazalar oqimi butun XX asr davomida to'xtamadi.

¹⁶ Bashir Z. O'zbek adabiyoti. Qozon 1929. 15 bet

¹⁷ Inog'omov R. Qodiriy jahon kezadi. Sharq yulduzi. 1994 3-4 son

Abdulla Qodiriy siymosi ham muhojirotdagi turkiy millat vakillari, shuningdek, G'arb va Amerika olimlarining nazaridan chetda turmadi. 1929-1939 yillar oralig'ida Mustafó Cho'qay o'g'li rahbarligida Parij shahrida «Yosh Turkiston» nomli jurnal nashr etilgan. Unda barcha jadidlarga jiddiy e'tibor qaratilganidek, ba'zi maqolalarda Julkunboyga ham munosabat bildirildi¹⁸.

Aynan shu «Yosh Turkiston»ning 1931 yilgi 18-sonida Azimzoda ismli muallifning Mashhaddan yozgan «O'tkan kunlarimiz» sarlavhali bir maqolasi borki, Abdulla Qodiriyga munosabat bu o'rinda ancha jiddiy va aybnoma ruhidadir.

30-yillarda S.Xusayn, M.Buzruk singari o'zbek munaqqidlari adibning «millatchi», «mayda burjuaziya» vakili ekanligini yozgan, romanlaridan sho'rocha talablarni qoniqtiradigan manzaralar topa bilmay ayblagan bo'lsalar, Azimzoda Abdulla Qodiriyning o'z maqolasida «bolsheviklarga sotilg'on» hisoblaydi; adib romanlarini o'qib, unga shunday aybni yuklaydi. Darvoqe, bu o'rinda Botuni bolsheviklarning ishonchli xizmatchisi, Mirtemirni esa «bo'lshaviklar manfaati uchun she'rlar yozadi», «bo'lshavik malaylaridan», deb aytadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu maqoladagi mulohazalar chukur ilmiy-estetik talqinlar natijasi emas, balki mavjud hokimiyat bilan bir oz murosaga kelib ijod etayotgan, tahlikalar ichida kun kechirayotgan milliy bir adibga nisbatan quruq asossiz hujumlardir.

Azimzoda quyidagicha yozaveradi: «Abdulla Qodiriy bo'lshaviklar uchun xizmat qilib turadir. Uning «Mehrobdan chayon» degan kitobi milliy ro'mon emasdir. Bu asarda burung'i xonlarning ayblari xayoliy va mubolag'ali bir suratda tasvir etilib, eski an'analar xalflar nazarida takbih etiladir; millat va milliyat tuyg'usi alayxinda bo'lg'on bu ro'mon bo'lshaviklar manfaati uchun nashr etilmishdir...

¹⁸ O'q to y. Turkiston adiblari vazifasi. Yosh Turkiston. 1937 yil: № 95.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» kabi yana «O'tkan kunlar» degan ro'moni bor. Bu asarda bo'lshaviklarga pak makbuldir»¹⁹.

Azimzoda fikricha, Abdulla Qodiriy o'sha romanlarini biryoqlama yozgan, chunki qahatchilik hukm surayotgan o'tgan yillarda uning «qalami kunlik ozuqqa» sotilgan emish. Adib o'z romanlarida o'tgan kunlarimizni qaro buyoqlarda bergan, faqat yomonlagan. Holbuki, eski zamonlarda qadim Turkistonda u lug binolar, naqsh, ipak san'ati, og'och, mis va temir o'ymakorliklari, toshko'mir va qog'oz sanoati rivojlangan bo'lgan. Abdulla Qodiriy o'tmish xususida ro'mon yozar ekan, «bunlarni ko'rmamish va unga otasi-da so'yilamamishdir». Badiiy asar bilan real tarixiy asarning farqiga bormaydigan muallif fikrlari shunday. Va hatto, bir o'rinda: «O'tkan kunlarimizni yaxshi bilmasdan u haqda ro'monlar yozishga jasorat etish buyuk xiyonatdir», degan iddaoni yozadi. Ehtimol, Azimzoda Turkistonning o'tmishini ulug'lashi, uning buyukligini ovoza qilish lozimligini ta'kidlashi bilan vatanparvarlik, millatparvarlik qilayotgandir. Ammo, uning badiiy voqelikka yondashuvi matndan uzoq. Chunki maqolasida roman voqea-hodisalari yoki muayyan obrazlar tahlili yo'q. Go'yo unga kimdir Abdulla Qodiriy o'sha romanlarida o'tmishni qoralagan, degan gapni yetkazib qo'ygan-u, u romanlarni o'qimasdanoq, o'sha «qora o'tmish»ni «oqlash»ga tushib ketgan ko'rinadi. Har holda maqolaning umumiy pafosi shunday taassurot beradi.

Bu o'rinda Azimzoda fikrlarining inkori uchun uzundan-uzoq dalillar keltirish shart emas. Chunki «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon»ning o'zbek millati ma'naviyatiga, badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga bergan ta'siri Abdulla Qodiriy millat va vatan uchun qanday xizmat etganini ko'rsatadi.

Qiziq holat. Aynan o'sha tarixiy davrda adibga naqadar qiyin bo'lganini tasavvur etish mumkin. Ichkaridagilar uni «millatchi» dan olib, «millatchi»ga solgan bo'lsalar, tashqaridagi bir «millatsevar» kishi o'z talqinlarida adibni

¹⁹ I. Azimzoda. Utkan kunlarimiz. Yosh Turkiston. 1931 yil: № 18.

«bo'lishaviklarga sotilg'on», tarix oldida buyuk xiyonat qilgan xiyonatchiga chiqardi...

Ikkinchi jahon urushi davrida Berlinda nashr etilgan «Milliy adabiyot» majmuasida «O'tkan kunlar»dan parchalar berildi (1943. 5-son). Q.Isroiljon imzosi ostida bosilgan «Turkiston yozuvchilari haqida bir necha so'z» nomli maqolada - **asosiy ran** Cho'lpon xususida bo'lsa-da - Abdulla Qodiriy nomi jadidlar qatorida tilga olinadi²⁰.

Shuningdek, «Milliy Turkiston» majmuasining 1964 yil may sonida Boymirza Hayitning «Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo: Qodiriy va Cho'lpon» nomli maqolasi bosiladi. Maqolaning avvalgi qismi Abdulla Qodiriy xususida bo'lib, sarlavhadan keyin «boshqarma» - tahririyat tomonidan shunday eslatma bitilgan: «B.Hayit tomonidan XXVI Baynalmilal sharqshunoslar qurultoyi, turkshunoslar bo'limida, Dehli 7. 1. 1964 da bergan ma`ruza»²¹.

B.Hayit Abdulla Qodiriy asarlarining matnini maxsus adabiy-nazariy nuqtai nazardan talqin etmaydi, balki u mumiy yo'sinda adibning hayoti va ijodi xususida fikr bildiradi. Albatta, bu davrga kelib Abdulla Qodiriy allaqachon oqlangan va uning ijodi sovetlar mafkurasiga begona emasligi isbotlanayotgan edi.

B.Hayit sobiq ittifoqdagi chiqiishardan farqli o'laroq ayrim mulohazalarni bildirdi.

1.«O'tkan kunlar»da «Ho'qand xonligi va Rusiyaning Turkistonga hujumi oldidagi hayot tasvir etilgan»ligini ochiq yozdi.

2.Abdulla Qodiriyning ijodi na «sovetlar birligida va na Ovro'pada» mukammal o'rganilmayotganini aytdi.

3.B.Hayit fikricha, adibning o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi ekanligini har kim har doim zikr etadi. «Lekin sovet adabiyotshunoslari, uning mafkura masalasida ayblaydilar, - deya yozadi u va I.Sultonov fikrlariga piching aralash murojaat etadi, - chunki u «jadidchilik harakati ta'siri ostida qolgan,

²⁰ Isroiljon Q. Turkiston yozuvchilari haqida bir necha so'z. Milliy Turkiston 1942. № 11.

²¹ «Milliy Turkiston» majmuasi. 1964. № 11. 22-26-betlar.

Turkistonning Rusiya tarafidan qo'shib olinishining taraqqiyparvarligini sezmagan va sinfiy kurashni o'z asarlarida yaqqol ko'rsata bilmagan» emish».

4. Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr qilina boshlandi. Biroq «O'tkan kunlar»ning 1958 yilda nashri ilgari nashrlardan farqli edi. B.Hayit roman matnlarini qiyoslab, ba`zi o'rinlar tushurib qoldirilganini, ayrim jumlar tahrir etilganligini ta`kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning «o'ris bilan to'qnashma»da shahid bo'lganligi iborasi «chor askarlari bilan to'qnashish»da birikmasiga o'zgartirilganligini misol kilib keltiradi.

Albatta, B.Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favqulodda yangi, kutilmagan talqinlari sezilmaydi. Biroq, unda «millatlar turmasi»da aytish va yozish mumkin bo'lmagan ayrim gallar bor. Aynan adabiy siyosat e'tiboridan talqindagi farqni bilish qiyin emas. Tabiiyki, bunday kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nisbatan bildirgan shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so'z bo'roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi xukmron siyosatning talabi shunday edi.

XX asr jamiyatida bir-biriga muxolif bo'lgan ikki lager ideologlari bitta adabiy-tarixiy voqelikka ikki xil nazar bilan qaradi. G'oyaviy kurash maydonida bu ideologlar murosaga kela olmaydigan masalalar bor edi. Rus bosqinchilariga, jadidlarga, Cho'lpon, Fitrat va shu jumladan, Qodiriyga munosabat masalasi shu doiraga kiradi.

Zotan, xoriyda ushbu masalalarga o'z munosabatini bayon etgan olimlardan biri Edvard Olvort edi. Uning «O'zbek adabiy siyosati» nomli kitobi bor. Olim unda jadid adabiyotiga jiddiy e'tibor qaratadi va umuman to'g'ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mafkuraviy-siyosiy adabiyotshunoslik namunasi bo'lgan «O'zbek adabiy siyosati» kitobida Abdulla Qodiriy nomi bir necha o'rinda, ya'ni Behbudiyning «Padarkush»iga taklidan «Baxtsiz kuyov» dramasini yozganligi, garchi Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek romannavisi bo'lsa-da, diqqat-e'tibordan

chetda qolib kelganligi, 1956 yilgi N.Muhiddinovning Abdulla Qodiriy siymosiga alohida e`tibor berganligi kabi qator masalalar tilga olinadi²².

Bu fikr-mulohazalar sho`ro adabiyotshunosligidan bir oz farq etar edi, ammo Abdulla Qodiriyning muayyan asari maxsus talqin qilinmaydi va adabiyotshunoslikning, bunday o`zak masalasi bu tip olimlar zimmasiga tushmas ham edi. E.Olvortning kitobidagi fikrlari bilan ham sovet olimlari hisob-kitob qilishga majbur bo`ldilar.

Biroq shuni alohida ta`kidlash joizki, agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sho`ro adabiy siyosatiga mos kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e`tirof ramzi o`laroq, maqolalarda undan iqtiboslar keltirilar edi.

2-fasl. Yozuvchi romanlar xorijiy adabiyotshunoslari nazarida

Ma`lumki, 1968 yili Germaniya Demokratik Respublikasi poytaxti Berlinda «O`tkan kunlar» «Die Liebenden von Taschkent», ya`ni «Toshkentlik sevishganlar» nomi ostida rus tili orqali olmonchaga o`girilib, nashr qilinadi. Unga olmon adabiyotshunosi Niota Tun so`ngso`z yozgan. Bu adabiyotshunosning fikr-mulohazalari xorijdagi «burjua ideolog»lari qarashlaridan farqli o`laroq qodiriyshunoslikdagi sho`rocha talqinlarga yaqin keladi. Adibning iste`dodini, badiiy tafakkur ravnaqiga qo`shgan hissasini alohida ta`kidlagan N.Tun siyosiy tushunchalar iskanjasidan tashqari chiqmaydi va yozadi: «1924-1925 yillarda Abdulla Qodiriy Moskvada o`qiydi, bu yerda o`sha vaqtda qizg`in munozara obyekti bo`lgan yosh rus sovet adabiyotidagi turli masalalar bilan yaqindan tanishadi Moskvada olgan bilim va tajribasi uning ona diyori O`zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga, mafkuraviy va estetik masalalarni qayta o`ylab ko`rishga, shu bilan bog`lik savollarga javob qidirishga yordam beradi». «Abdulla Qodiriy o`zining romanini Oktyabr inqilobi tajribalaridan kelib chiqib yozdi. U o`z xalqining asrlar bo`yi ezilishida aybdor bo`lgan ijtimoiy kuchlardan nafratlanadi».

²² Edward Allworth. Uzbek Literary politics. London-Paris. 1964. P. 36-37. 72-73, 209.

60-yillarning oxirlarida yozilgan bu fikrlar bilan kimdir bahslashishi, o'sha tarixiy muhitdagi talqin tabiatini anglab yetishi va eng muhimi adabiy siyosat dastining naqadar uzunligini aniq ko'rishi mumkin. Chunki GDRning ijtimoiy-siyosiy hayoti ham O'zbekistonga ta'sir etib turgan Moskvadagi hukumat tarafidan boshqarilar va shu bois «bir lager» namoyandalarining qarashlari o'zaro yaqin bo'lishi tabiiy edi.

1975 yili Amerikaning Kolumbiya universitetida «Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932», ya'ni «O'rta Osiyoning o'tish davri adabiyoti: 1909 yildan 1932 yilgacha tojik va o'zbek badiiy prozasi» nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bir ilmiy ish himoya etiladi. Uning muallifi E.Olvortning shogirdi Eden Nabi ismli olim edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ancha faktlarga boy va xolis yozilgan bu dissertatsiya ish markazida, garchi, o'sha davrda o'nlab ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, asosan Sadridin Ayniy va Abdulla Qodiriy turadi. Dissertant har bir ilmiy masalani yoritishga intilar ekan, shu ikki ijodkor hayotiga, yozgan asarlariga murojaat etadi. Dissertats «Cultural effects of increased trade», ya'ni «Madaniy an'analarning ta'siri» degan ikkinchi bobida har ikki adibning ta'lim, tahsiliga e'tibor beradi. Abdulla Qodiriy eskicha, yangicha rus-tuzem maktabida ham o'qiganini, S.Ayniyning 30-yillarning oxirigacha eski maktabda olgan bilimi bilan cheklanganini yozadi.

«O'tkan kunlar»ning dastlabki tanqidi va unga Abdulla Qodiriyning javobi xususida to'xtalar ekan, S.Husayn adibni asossiz ravishda ko'chirmachilikda ayblaganini, shuningdek, Abdulla Qodiriy J.Zaydon asarlarini Ozarbayjon va turk tillaridagina emas, balki fors tilida ham o'qigan bo'lishi mumkin, chunki bu davrda (ya'ni 20-yillarda) o'sha yozuvchining 20 ta asari fors tiliga tarjima etilgan edi, degan fikrni ilgari suradi.

E.Nabi bir o'rinda Abdulla Qodiriy romanchilik mahoratini S.Ayniyga qiyoslab, ilk o'zbek romannavisining ustunligini bayon etadi: «Ayniyning tarixiy romanlari G'arb madaniyata nuqtai nazaridan qaraganda o'z mohiyatini to'liq

ifodalay olmagan bo'lsa, Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan ikki roman tarixiy roman elementlarini ko'rsatishga ancha yaqinlashdi. Shuningdek, ushbu ikki roman ma'lum bir xususiyatlar bilan G'arb romanchiligidan farqlanib, ajralib turadi»²³.

E.Nabi e'tiborini tortgan yana bir jihati shuki, Abdulla Qodiriy xotin-qizlar obrazida realistik, xis-tuyg'ulari, ichki va tashqi dunyosi bilan yorqin tasvirlagan; o'sha davrning boshqa sho'ro o'zbek va tojik adiblarida aynan xotin-qizlar dunyosi juda sayoz, biryoqlama, sho'ro tuzumini yoqlash va eski an'analarni quruq qoralash yo'sinida yozilgan.

Abdulla Qodiriy realizmi roman oxirida Zaynab obrazini badiiy talqinida yanada ochiqroq ko'rinadi. Yozuvchi «Zaynabni yovuz deya xukm chiqarmaydi», aksincha, uning holatini, iztiroblarini tahlil etadi va «juda go'zal talqinni» maydonga qo'yadi. Jinni deya xukm etilgan Zaynabni hech kim jazolamaydi. «Qodiriyning Zaynabga munosabati gumanitar va realistik... Bu munosabat boshqa muallif-larning ayollar tasvirlangan melodramatik shaklli asarlaridagi munosabatdan butkul farq qiladi Prozada ijod etgan ko'plab yozuvchilar, garchi ayollarning nisbatan ishonarli obrazlarini aks ettirgan bo'lsalar-da, hech biri Qodiriy kabi uning ichki xususiyatlari, ichki dunyosini o'rgangan emas»

Shuningdek, mazkur qiyosiy uslubda yozilgan tadqiqotda Abdulla Qodiriyning «Kalvak maxzum...» va «Mehrobdan chayon» asarlari, ularning jozibali tili, o'zbeklar tarixidagi urug'larga e'tibor berganligi, siyosatga va qatag'on hamda keyinchalik o'zgargan siyosatning adibga munosabatlari xususida xam qator fikrlar bor. Tadqiqotchi umuman, Abdulla Qodiriy ijodini biladi, o'z ishida H.Qodiriy, Fitrat, G'afur G'ulom, H.Olimjon asarlariga, ba'zan I.Sultonov, V.Zoxidov, L.Qayumov, U.Normatov, S.Mirvaliev, N.Vladimirova, R.Inogomov kabi olimlarning kitob va maqolalariga, asosan esa, ustoz E.Olvortning «O'zbek adabiy siyosati» kitobiga murojaat etadi.

²³ Eden Nabu. Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio University 1975. P. 72. 18

Abdulla Qodiriy ijodining xorijda o'rganilishini yaxshi tekshirgan adabiyotshunos olim Xayrulla Ismatulla Eden Nabi dissertatsiyasidagi kamchilikni quyidagicha ko'rsatadi: «Bu ishning bo'sh tomoni: ishda muallif har ikki adabiyot (o'zbek va tojik) uchun muhim sanalgan katta bir davrni, o'nlab adiblar ijodini 240 saxifada yoritishga uringan. Natijada bu dissertatsiya qisqacha berilgan obzorlar majmuasiga o'xshab qolgan»²⁴. Xayrulla Ismatulla o'zining «Abdulla Qodiriy abadiyati» nomli maqolasida ancha ma'lumotlar bergan edi.

Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini «The Relationship of Abdulla Qodiriy's Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions», ya'ni «Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o'zbek adabiy an'alariga aloqasi» mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga «struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan» yondashadi.

X. Murfi struktural analiz metodologiyasini tanlash sababini bevosita adib romanlarining ichki mohiyatiga, ularda o'zi ilg'ab olgan ikkita muhim omilga bog'laydi. Avvalo, «O'tkan kunlar» tadqiqotchiga romandan ko'ra boshqacharoq asar bo'lib ko'rinadi. Ikkinchidan, «O'tkan kunlar»ning bayon uslubidagi juda ko'p qirralar an'anaviy o'zbek xalq ogzaki ijodida uchraydigan jihatlarni eslatar ekan.

Shu bois, X.Murfi roman strukturasini, bayon uslubini «Alpomish» (qaxramonlik eposi), «Kuntug'mish» (romanik epos), Alisher Navoiyning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» dostonlari hamda xalq kitobi «Tohir va Zuxra»larga taqqoslashni ma'qul topadi. Tadqiqotchining diqqatini o'ziga tortgan muhim fakt shuki, «Tohir va Zuxra», «Farhod va Shirin» dostonlari «O'tkan kunlar» mukaddimasida tilga olinadi. Va demak, qiyos uchun asos ham borligi ko'rinadi.

Olim dissertatsiyasining «Abdulla Qodiriyning hayoti va uning ishlariga o'zbeklar bergan baholar» bobida bizga ma'lum ma'lumot, fikr-mulohazalarni Oybek, I. Sultanov, H.Qodiriy asarlariga tayangan holda bir sidra takrorlab chiqadi Albatta, bu Abdulla Qodiriy siymosini xorijda tanitish uchun juda muhim edi.

²⁴ Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994 yil. 14 oktyabr 11 noyabr

X.Murfi yuqorida sanalgan beshta doston syujet tuzulishini tekshirib chiqqach, «O'tkan kunlar»ga keladi. Voqea-hodisalarning joylashish strukturasi «o'quvchi qabul qiladigan» (ijobiy) va «o'quvchi qabul qilmaydigan» (salbiy) tarzda maxsus jadvalga soladi.

Shu jadvaldagi «plyus» va «minus», «ijobiy» va «salbiy» tomonlar kimgadir sodda yoki jo'n tuyulishi mumkin. Ammo, bu jadval romanning syujet rivojini «ajralish» va «birlashish» tarzidagi izohi bilan ko'z oldimizda namoyon etadi. Tadqiqotchi syujetni bayon etishning bizning adabiyotshunosligimiz tajribasida ko'rilmagan yo'lini tanlagan.

Shuningdek, X.Murfi «O'tkan kunlar»dagi konflikt masalalariga, obrazlar uchun tanlangan ismlar va ularning talqiniga, romanda aks etgan tarixiy voqealarga, xarakter va personajlarga, «Mexrobdan chayon» romani syujet voqealari, qahramonlariga e'tibor beradi. Olim fikricha, Abdulla Qodiriy «Mexrobdan chayon»da ham «O'tkan kunlar» romanidagi kabi ramziy ma'noli ism tanlashga jiddiy qaragan.

Tadqiqotchi Qodiriy romanlarining tili yangi va ayni chog'da, o'zbek adabiyota tarixida mavjud hikoya qilish an'anasiga yaqin turadi, deydi. Fikr isboti uchun «Mahbub ul-qulub» va «Boburnoma» qiyoslanadi. Xalqning so'zlashuv tiliga yaqinligi, ba'zan xalq dostonlari tiliga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

X.Murfi «O'tkan kunlar»da xalq dostonlari uslubidan keng foydalanish sababini, adib o'quvchi-kitobxon ommasini ko'proq o'ylagan, deb hisoblaydi.

«Mehrobdan chayon» esa struktura jihatidan o'zbek xalq dostonlaridan farq qiladi. Ammo, «O'tkan kunlar» xalq dostonlariga yaqin kelsa, «Mehrobdan chayon»da Abdulla Qodiriy boshqa yo'ldan borgan. Bu romanda yozuvchi xalq dostonlari strukturasi uzoqlashgan.

Tadqiqotchi Qodiriy romanlaridagi zamon va makon realligini novatorlik-yangilik sifatida baholaydi. Zero, o'tmish xalq epik dostonlaridan ana shu e'tibor bilan ham farqlanadi.

Abdulla Qodiriy ijodining Amerikadagi muxlisi X.Murfi 1992 yilda «O'rta Osiyo musulmonlari. O'zlikning ifodalanishi va o'zgarishlar» nomli to'plamda «Abdulla Qodiriy va bolsheviklar. Islohdan inqilobgacha» degan maqola bilan qatnashadi. Olim bunda adibning «Baxtsiz kuyov», «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Tinch ish», «Otam va bolshevik» singari bir qator asarlarini talqin etish jarayonida Abdulla Qodiriyning ijtimoiy qarashlarini o'rganadi.

Olim fikricha, Abdulla Qodiriy ba'zi mulla-imomlarni tanqid etgan, ammo, u hech qachon islom diniga qarshi yozmagan. Shuningdek, adibning ijtimoiy qarashida jamiyatni isloh yo'li bilan tuzatib bo'lmaydi, balki inqilobiy yo'l bilangina jamiyatdagi yomon odatlardan kutilishi mumkin.

Albatta, amerikalik olimning «O'tkan kunlar» va «Mexrobdan chayon»dek romanlarni struktural metod asosida talqin qilishi biz uchun **yanpshikdir**. Uning tajribasi bizning adabiyotshunoslikda shu yo'nalishdagi tadqiqotlar maydonga kelishi uchun bir namuna bo'lishi ham mumkin. Biroq, Abdulla Qodiriy romanlarini, ularda xalq donoligining hikmatlari o'z ifodasini topganligini yoki xalq kulgisidan adib juda o'rinli foydalanganligini bizning olimlarimiz ham juda yaxshi biladi.

Demak, X.Murfining tadqiqoti bizda mavjud ilmiy ishlarni to'ldiruvchi va ayni chog'da, tadqiqot uslubidagi originallik bilan farqlanib turuvchi muhim ishdir.

O'tgan asrning 90-yillarida olmon olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga jiddiy qaradilar. Maxsus adabiy lug'atlarda Abdulla Qodiriy hayoti, ijodi xususida ma'lumot berdilar. Rudolf Radler muharrirligi ostida bir necha yil davomida nashr etib kelingan, ko'p tomlik «Kindlers Neues Literatur yexlkop»ining 1990 yilda bosilgan 9-tomida «Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar» degan ikki betlik maqola shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, G'arb olimlari, umuman, xorijlik o'zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagiga nisbatan chuqurroq. Mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma'rifiy talqinlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

Masalan, bu o'rinda o'zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish olmoniyalik olimi, hozirda Gumbold universitetida ishlayotgan professor Ingeborg Baldauf xonimning «Auf der Suche nach der Wahrheit», ya'ni «Haqiqat axtarib» degan maqolasini eslab o'tish mumkin. Mazkur maqola Bambergdagi «Otto Friedrich Universitat»..... 1990 yili o'tkazilgan sharqshunos olimlar anjumanidagi ma'ruza matnidir. Olima bunda muayyan bir falsafiy tushuncha - haqiqatning evrilishlarini, har davrda haqiqat turli mohiyat tashiganligini, shunga ko'ra har zamonning o'z haqiqatlari bo'lishligini turli o'zbekcha matnlar ustida tadqiq etadi. «Haqiqat» tugunchasi «jadidchilik, inqilobchilik, millatchilik va g'ayridinchilik ruhidagi matnlarda» turlicha aks ettiriladi. I.Baldauf bu fikrni Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Shokir Sulaymon va Abdulla Qodiriy singari siymolar ijodidan olingan iqtiboslar orqali isbot etadi.

I.Baldauf Abdulla Qodiriy ijodiga ham «haqiqat» nuqtai nazaridan yondashadi. Adibning «Haqiqat ochiq so'zlashdadir» degan jumlasidan ham, uning boshiga kelgan, asarlariga tamg'alangan nohaqliklardan ham yaxshi xabardor. Abdulla Qodiriyning kolxoz hayotidan olib yozilgan «Shubha» hikoyasiga bizning adabiyotshunoslarimiz kam diqqat qilgan. Olima esa «Shubha»da ikkita shubhani ko'radi. Birinchisi, hikoyadagi xarakter tabiatida ko'ringan shubha. Ikkinchi shubha esa «metaforaga, badiiy, ijodiy musaffolikka yoki boshqacha qilib aytganda, sotsialistik realizm metodining asosliligiga, qonuniyligiga bildirilgan». Olimaning bu qarashlarini o'ziga xos nozik talqinlar sifatida qabul etish ham mumkin.

Shuningdek, maqolada «Obid ketmon» asari munosabati bilan, aynan, «haqiqat» so'zi ishlatilgani uchun professor Umarali Normatovning «Obid ketmon» haqiqati» maqolasiga munosabat bildiradi. «... Abdulla Qodiriy ko'rinishidan haqiqat axtara turib, ko'z oldiga g'oyaviylik va partiyaviylik tozaligichini qo'ygisi kelmasdi.

Raqiblari esa unga barcha asarlarida va «Obid ketmon»da ham kishilarni ijtimoiy sinflarga bo'lib emas, balki, ikkiga o'zi yasagan sinfga, ya'ni yaxshi va yomonga ajratib tasvirlaganini ro'kach qilib, ta'na toshlarini ota boshladilar. Bu ta'nalar 1989 yilga kelibgina shubha ostita olindi». Ya'ni U.Normatovning «Obid ketmon»ni yangicha nuqtai nazardan talqin etgan, qissa markazida Obid ismli nihoyatda insofli, iymon-e'tiqodli bir inson turganligini ta'kidlagan maqolasi yozildi. Olima U.Normatov sarlavhaga olib chiqqan «haqiqat» so'ziga o'z izlanishlaridagi ilmiy-falsafiy mezon bilan yondashib, bir oz chuqur ketadi. Va shu bois, ayrim ehtimollarini hamda sarlavhaning boshqacha variantlarini o'rtaga tashlaydi. Olimaning bu jiddiyatini, so'zga e'tiborini inobatga olish kerak, albatta. Ammo, bizningcha, U.Normatov «Obid ketmon» haqiqati» deganda eng avvalo qissaning fazilatlarini, yangicha sharoitdagi yangicha talqinlarini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas.

Professor I.Baldauf o'zbek adabiyotini, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini o'zicha tushunadi, o'zicha tushuntiradi. Ba'zida o'zbek adabiyotshunoslari e'tiborsiz qoldirgan nuqtalarga diqqatni qaratadi.

Olmoniyada Abdulla Qodiriy ijodi bilan jiddiy shug'ullangan olimlardan yana biri Zigrig Klaynmixeldir. Bu olim ham o'zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish. O'zaro ilmiy aloqalar ham o'rnatgan. 3.Klaynmixel o'zining 1993 yili nashrdan chiqqan 279 betlik «Sharkona yozish an'anasining rivojlanishi. 1910-1934 yillar o'zbek dramasi va nasriy asarlar tadqiqi» deb nomlangan kitobining maxsus bir bo'limini Abdulla Qodiriy romanlariga bag'ishlaydi «Turkiston hayotidan Abdulla Qodiriyning ikki romani» deya atalgan mazkur bo'lim: «XX asrda yozilgan hech bir o'zbek kitobi haqida Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani xususidagi kabi ko'plab maqola, xotira, latifa va afsonlar tarqalgan emas»²⁵, degan so'zlar bilan boshlanadi. Shundan keyin Abdulla Qodiriyning obro'-e'tibori, o'zbekcha manbalarga tayanib, «O'tkan kunlar»ning yozilish tarixi,

²⁵ Kleinmichel Sigrid. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur Usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. 1993. Wiesbaden. F. 201

kitobning xalq orasida naqadar sevilib o'qilganligi kabi qator masalalarga to'xtaladi. Olima o'z kitobini olmon tilli sharqshunoslarga mo'ljallab yozgani bois, Abdulla Qodiriyning kimligiga, aniqrog'i, tarjimai holiga doir sanalarga birma-bir murojaat etadi. Uning nazaridan «O'tkan kunlar»ga bag'ishlab yozilgan Sotti Husayn va Oybek singari siymolarning asarlari ham chetda qolmaydi. Va har ikkala tekshiruvchining asosiy adabiy-ilmiiy kontseptsiyasi sotsialistik elementlar bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlaydi.

Olima Abdulla Qodiriy romanlaridagi obrazlarni ijobiy va salbiyga ajratish beixtiyor sodir bo'lishini yozgandan so'ng: «Shoir va dramaturglar yetim obrazidan inqilobdan avval ham foydalanishgan edi. Bunday obraz bilan ular odamlar orasidagi ijtimoiy farqni ko'rsatishgan. Jumladan yetim obrazi Abdulla Qodiriy ijodida ham uchraydi»¹⁹¹, deydi. Va Usta Olim hamda Anvarlarni bunga misol qilib beradi.

Shuningdek, Z.Klaynmixel tadqiqotidan: «Muallif Otabek uchun she'riyatdagi obrazlarga xos nutqni prozaga ko'chirdi: oshiq kasal bo'lib qoladi va oh ura boshlaydi», «Ota-bola o'rtasidagiga o'xshash munosabat na xalq adabiyotida, na masnaviyda va na J. Zaydon asarlarida ko'zga tashlanadi...». «Biron shaxsga voqeliqda mos tushishi mumkin bo'lgan tasnif va o'zini tutish imkoniyatlari bir necha shaxsga bo'lib-bo'lib berilganga o'xshaydi», kabi e'tiborli qarashlar ko'p. Shunisi muhimki, olima o'z talqinlarida adibning har ikki romanini yonma-yon, uyg'unlikda qiyosiy talqin etadi va o'rni-o'rni bilan xalq og'zaki ijodiga taqqoslab boradi. Bu tamoyil olimaning «O'tkan kunlar» va «Mexrobdan chayon» romanlarining xotimasiga doir qarashlarida ham o'z ifodasini topdi: «Qodiriyning har ikki romani ikki yechimga ega. «O'tkan kunlar»da «qora Homid» ustidan qozonilgan g'alaba ertaklarda uchraydigan baxtli yechimni eslatadi. Vaholanki, bu bilan romanning ikkinchi qismi tugab, uchinchi qism boshlanadi. Kumush va Otabekning o'limi baxtsiz yechim bo'lsa ham, u realistik yechimdir, u ertaklarda bo'lishi mumkin emas...

«Mehrobdan chayon» romanining nihoyasi aslida Ra`noning xon saroyiga keltirilishi bilan tugashi kerak edi. Uning otasi to`yga rozilik bergan. Anvar o`zini chetta olgan, to`y sarupolari allaqachon qabul qilib olingan. Ammo, asarda real yechim yo`q. Asarga g`aroyib, sarguzashtli hodisani ko`shish natijasida sevishganlar o`sha taqdirdan qutulib qoladilar. Ularning maqsadi, o`sha paytda allaqachon Rossiya qo`liga o`tgan Toshkentta yetib olish. Bu yerda ular Qo`qon xonining ta`qiblaridan qo`rqmasa ham bo`ladi. Bu ikkinchi baxtli xotimaga ertaklarda uchraydigan yechim sifatida qarash mumkin»

Olima fikricha, Abdulla Qodiriyning har ikki romani ana shunday ikki yechimlidir. Shunisi e`taborliki, «Mehrobdan chayon» oxiridagi epilog ham yechim-xotima uchun katta imkoniyatlar beradi.

Z.Klaynmixel Qodiriy romanlariga juda katta e`tibor berib, o`z talqinlarida 30-yillardagi S.Husayn, Oybek, 60-80-yillardagi tanishdi qodiriyshunoslaridan I.Sultonov, M.Qo`shjonov, I.Mirzaev, A.Alievlarning fikrlarini inobatga oldi, ba`zan ular bilan bahsga kirishadi.

Zigrid Klaynmixel xonim qalamiga mansub yana bir manba «Die Gestalt des Prosaschriftsteller Abdulla Qadiri im geistigen und kulturellen Leben Uzbekistans» («Yozuvchi Abdulla Qodiriyning O`zbekiston ma`naviy va madaniy hayotidagi o`rni») deya nomlangan bo`lib, bu manba 1990 yil 15-16 iyun kunlari Bambergda o`tkazilgan O`rta Osiyoga bag`ishlangan ilmiy anjumandagi ma`ruza matni hisoblanadi²⁶. Bu maqolada ham olimaning Abdulla Qodiriy shaxsiyatini, ijodini yaxshi bilishi o`z ifodasini topgan. Olima bunda kitobidagi fikrlarini takrorlamaydi. Yangi ma`lumotlar-Izzat Sultonning 1988 yilda yozgan «Abdulla Qodiriyning «O`tkan kunlar»i nomli pyesasi, H.Qodiriyning 1989 yil «Yoshlik» jurnalining 4-7-sonlarida e`lon etilgan «Qodiriyning so`nggi kunlari» qotara qissasini eslab o`tadi.

²⁶ Bomberg Mittelasiestudien. Berlin. 1994. 153-168.

Tadqiqotchining quyidagi kuzatishi ham diqqatga loyiqdir: «Adabiyot tarixida yozuvchining tugʻilgan yili, nasl-nasabi, taʼlim yoʻli va boy adabiy ijodi haqida maʼlumotlar bor. Oʻlimi masalasi esa ochiq. Albatta, XIX asr qisman XX asrgacha boʻlgan Sharqning koʻpgina shaxslaridagidek, Abdulla Qodiriyning ham tugʻilgan yili nomaʼlum kolgan. Hali Abdulla Qodiriy hayotligidayoq uning tugʻilgan yili 1894, 1895, 1896 va 1897 yil deb berilgan. Hozirda 1894 yil 10 aprel, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 1989 yilgacha yozuvchi hayotining oxiri ham noaniq boʻlib keldi. U 1937 yil qamoqqa olindi va uning izlari Toshkent qamoqxonasida yoʻqoldi. Oqlangandan keyin oʻlgan yili sifatida 1938, 1939 va 1940 yillar koʻrsatildi. 80-yillarning oxirlariga kelib Habibulla Qodiriy otasining 1938 yil 5 oktyabrda oʻlimga hukm etilgani va hukm shu kuni amalga oshirilgani haqida maʼlumot oldi»

Darhaqiqat, Abdulla Qodiriyning tarjimai holiga oid maʼlumotlar, xususan, arxiv xujjatlari asosida yozilgan manbalar adib ijodining xoriydagi muxlislari eʼtiborini ham oʻziga jalb etdi.

Olima I.Sulton pyesasiga toʻxtalib, maqolasining oxirida pyesada foydalanilgan Abdulla Oripovning «Olomonga» (1980) sheʼrini toʻliq keltiradi. Maʼlumki, bu sheʼrning bir oʻrnida:

Surishtirganmiding Qodiriyni yo,

Qalqon boʻlganmiding kelganda balo?

degan satrlar bor. Olima fikricha, irodasizlik va loqaydlik xususida jiddiy oʻylash lozim.

Umuman olganda, I.Baldauf, Z.Klaynmixel singari olmoniyalik olimlarning Abdulla Qodiriy ijodiga doir xolis ilmiy qarashlari ilmiy jamoatchilikka yetkazilsa, adib haqidagi fikrlashuv maydonining yanada kengayishiga hech shubha yoʻq.

Maʼlum boʻlmoqdaki, XX asr mobaynida turli toifadagi xorij olimlari Abdulla Qodiriy ijodini turli aspektdan qarab tadqiq etganlar. Albatta, ularning baʼzilarida tuzumlar orasidagi gʻoyalar, qarashlar kurashining taʼsiri ham,

ayrimlarida o'ta sub`ektlashuv holatlari ham kuzatiladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy ijodini ikkinchi bir millat yozuvchilari ijodiga qiyosan xolis o'rgangan yoki mutlaqo yangi yunalishda - strukturalizm metodi asosida talqin etgan olimlar ham bo'ldi.

Qodiriyshunoslik tarixidagi bu omillar, birinchidan, o'zbek adabiyoti, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini dunyo adabiy jamoatchiligiga keng tanishtiradi; ikkinchi, nafaqat mumtoz o'zbek adabiyoti durdonalari, balki XX asrning iste'dodli adiblarining ham jahonning mashhur ijodkorlari qatorida o'z munosib o'rinlari borligini bildiradi. Bunday haqiqatni boshqalarga yanada teran anglatish uchun o'zbek adabiyoti namunalari keng miqyosda dunyoga chiqishi va o'zbek ziyolisi bu sohada chinakam fidoyi bo'lishi lozim.

Bobning ushbu bobiga xulosa qilib aytmoqchimizki, A.Qodiriy ijodiga xorijlik olimlar muntazam murojat etib turgan. Ularning har bir asari o'zbek adabiyotshunosligiga qo'shgan katta hissasidir. I.Baldauf, Z.Kleynmixellarning bu yo'nalishdagi ishlari tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, A.Qodiriy romanlarining turk tiliga tarjima qilinishi yosh turk olimi Aziz Merhanning Abdulla Qodiriy romanlari to'g'risidagi alohida kitob yozishi yozuvchi ijodiga, qolaversa o'zbek adabiyotiga bo'lgan katta hurmatning bir belgisidir. Chunki, A.Qodiriy bunday e'zozga munosib so'z zargari edi.

ROMANCHILIK MAKTABINI YARATGAN YOZUVCHI

(Xulosa o'rnida)

Mashhur sharqshunos olim bir vaqtlari dunyoda beshta romanchilik maktabi bor edi. Endi A.Qodiriy oltinchi romanchilik maktabini yaratdi deb yozgan. Bu yozuvchiga, uning romanchilik mahoratiga berilgan yuksak baho, yozuvchining jahon darajasida e'tirof etilganligining bir belgisidir, A.Qodiriy mana shunday salohiyatga ega so'z san'atkorlaridan biri edi. Bu adabiyotning emas. Hatto jahonning bir necha nuqtalarida tan olingan yozuvchilardan biri edi. Adabiy faoliyati davomida maktab yaratish hamma ijodkorga ham nasib etavermaydi. Buning chinakam iste'dod, boshqalarga ham saboq bo'la oladigan saboq namunasi, yozuvchilik tajribasi bo'lishi kerak bu masalada o'zbek adabiyotda A.Qodiriyga teng keladigan yozuvchi juda kam, yoki, umuman yo'q desak, bizningcha bu ham haqiqatdir.

A.Qodiriyning har bir katta katta-kichik asari ayniqsa romanlari o'zbek nasrida yangi sahifa ochgan asarlar bo'ladi. Tom ma'noda ular romanchilik maktabiga asos soldi. Bu asarlar faqat o'zbek yozuvchilarininggina emas qardosh adabiyot vakillarining ham diqqatini o'ziga qaratadi. Mashhur qozoq adibi M.Avezov maqolalaridan birida keyinchalik yozgan edi: “ “O'tkan kunlar” romanining paydo bo'lishi go'yo tekislikda Pomir tog'i o'sib chiqqanday bo'ldi, hammamizning diqqatimizni qaratdi”. Mashhur turkman yozuvchisi turkman romanchiligining asoschisi X.Deryayev “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarini o'qib o'zida roman yozish istagi tug'ilganligi va keyinchalik “Qismat” degan birinchi romanini A.Qodiriy romanlari ta'sirida yozganini mamnuniyat bilan eslaydi. Bunday misollarni boshqa qardosh adabiyotlardan yana ko'plab keltirish mumkin.

Magistrlik dissetatsiyamizni yakunlar ekanmiz Abdulla Qodiriy ijodiga to'g'rirog'i o'zbek va jahon qodiriyshunosligiga yana bir bor nazar tashlashga xulosa o'rnida ayrimalarning qodiriyshunoslik qo'shgan hissasini tilga olib o'tishga qaror qildik. Bu tadqiqotlar A.Qodiriy ijodini targ'ib qilishda muhim manba

vazifasini o'taydi.

Ta'kidlash zarurki, adabiy tanqidning milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari ijodiga bag'ishlangan kuzatishlarida aksiologik yondashuv yetakchilik qila boshladi. Ya'ni bu ijodkorlarning ijodiy merosini milliy qadriyatlarimizning go'zal namunalari sifatida e'zozlash, asrab-avaylab xalqqa yetkazish ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, M.Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» kitobi ana shu xususiyati bilan qimmatlidir. Unda Qodiriy romanlari ezgu qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar va milliy ruhiyat nuqtai nazaridan talqin etiladi. Munaqqidning yutug'i shundki, u asar qahramonlari Otabek va Kumush qalbida kechgan tug'yonlarni, ruhiy holatlarni roman syujeti va kompozitsiyasidan ajratmay, yaxlit holda tahlil qilishga erisha olgan. Yetakchi qahramonlar qalb kechinmalarining ishonarli tahlillarida munaqqidning yozuvchi mahoratini izchil kashf etib borganiga guvoh bo'lamiz. Kitobda estetik tahlil ustuvor, biroq ijtimoiy talqin ham e'tibordan soqit etilmagan. Jumladan, asarning g'oyaviy motivini ochishda, Otabek dunyoqarashining yetakchi xususiyatlarini ta'kidlashda, romanga singdirilgan millat, vatan taqdiri bilan bog'liq kotseptsiyani dalillashda munaqqid ijtimoiy talqinga urg'u bergan. Bu tabiiy hol albatta. Chunki badiiy asar talqini «sof estetik tahlil»dan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Badiiy asarda, ayniqsa, nasriy asarlarda, xususan, yirik janr hisoblanmish romanda qahramon bevosita tashqi muhit, ijtimoiy borliq bilan muayyan tarzda munosabatga kirishadi. Demakki, asar tahlilida munaqqid ham ijtimoiy hayot haqida fikrlashga burchli. Biroq ijtimoiy talqin ilmiy tahlilning o'zagiga aylanmagan, M. Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» asari Qodiriy ijodiga milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashishning go'zal namunalariidan biridir. Munaqqid talqinida yozuvchining poetik mahorati har tomonlama dalillab ko'rsatilganini ta'kidlash zarur. Ayni chog'da, romanga sho'ro davriga xos mafkuraviy mezonlar bilan yondashilgan o'rinlar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, Otabek bilan Kumushning fojeasiga sabab bo'lgan omillarni

belgilashda ko'zga tashlanadi. Munaqqid Otabek bilan Kumush fojeasiga zulmkor ijtimoiy muhit, eski urf-odatlar, ota-ona orzusi kabilarni asosiy sabab sifatida ko'rsatadi. Vaholanki, Otabek bilan Kumush fojeasining sabablarini faqat tashqi muhitdan axtarish unchalik to'g'ri emas. Aslida, bular ikkinchi, uchinchi darajali sabablardir. Roman qahramonlari fojeasining bosh omili esa, Otabek bilan Kumushning qalbi, ruhiyati, ma'naviy olamining o'ziga xosligidadir. Zero, Otabek va Kumushning qalblari shunday javohirki, unda Zaynablarga o'rin yo'q. Tasavvur qilaylik, Otabek ham o'z zamonasining farzandi. O'sha zamonda savdogarlar yurtlarni kezib yurishgan. Otabekka o'xshagan savdo ahli nafaqat Marg'ilon yoxud Qo'qon, balki Rossiya, Sharqiy Turkiston, qolaversa, Afg'oniston, Eron, arab davlatlarida tijorat bilan mashg'ul bo'lishib, bir ketishda oylab, yillab, hatto o'zga ellarda o'n yillab yurishgan. (A. Fitratning otasi Qashqarda 15 yil turgani haqidagi faktni eslang -Q.Q.) Demak, o'sha davr hayoti savdogar ahlining, islom aqidalariga ko'ra, boshqa yurt shaharlarida ham oilali bo'lishlarini taqazo etgan. Bu hol tabiiy bo'lib, Otabek va Kumushning zamondoshlarini hech bir qiynoqqa solmagan. Shu nuqtai nazardan, Otabekning Toshkentda Zaynabga uylantirilishi an'ana va urf-odatlarga xos hol bo'lib, bunda na «majburiyat», na «zulmkor muhit» va na «ota-ona orzusi»ning aybi bor. Fojining sababi esa Otabek bilan Kumush qalblarining sevgi bilan limmo-limligiki, ular o'z zamonasining tartib-qoidalari, tamoyillarini singdira olishmadi. Binobarin, Otabek bilan Kumush fojeasi haqida fikr yuritganda asosiy e'tiborni ular qalbining o'ziga xosligiga qaratish lozim bo'ladi.

U.Normatovning «Qodiriy bog'i» nomli kitobida yozuvchining «Kalvak mahzum...» va «Toshpo'lat tajang...» hajviyalari davr va shaxs kontseptsiyasi nuqtai nazaridan talqin etiladi. Munaqqid talqiniga ko'ra, adib Kalvak Mahzum va Toshpo'lat Tajang obrazlari orqali faqat mutaassib ruhoniy yoki chapani obrazlarini yaratish bilan cheklanmagan, ayni chog'da, bu xarakterlar vositasida davrning fojeali jihatlarini ham yoritib bergan. Kitobda U.Normatov Kalvak

Mahzum va Toshpo'lat Tajangning o'ziga xos insoniy qiyofasi yaratilganligini, garchi bu obrazlar hajviy xarakter kasb etgan bo'lsa-da, nuqul qora bo'yoqlar bilan chaplangan sxematik xarakterlar emas, balki hayotiy, haqqoniy qahramon darajasiga ko'tarilgan obrazlar ekanini asoslab beradi.

Adabiyotshunos B.Karim ham «Qodiriy qadri» nomli kitobidagi «Kim nimadan kuladir» («Xotira daftar»ini varaqlaganda) maqolasida U. Normatov fikrlarini mantiqan davom ettirib, Kalvak Mahzum obrazi orqali Qodiriyning davr illatlarini hajviy yo'sinda asosli, ishonarli fosh etganini poetik mahorat nuqtai nazaridan talqin etadi. Ta'kidlash joizki, Qodiriy hajviyotiga doir bu talqinlar, fikrlar adabiy tanqid tafakkuridagi evrilishlar, yangicha mezonlarni o'ziga dasturilamal qilib olayotgan metodologik tamoyillarning ilk namunalari. U.Normatov «Qodiriy bog'i» kitobida adib ijodining mohiyatini –ijtimoiy, badiiy-estetik kontsepsiyasini tarixiylik tamoyillari asosida yoritishga, asarlariga estetik printsiplardan kelib chiqib yondashishga harakat qiladi. Xususan, Qodiriyning 20-yillardagi ijodining bir yo'nalishi-jurnalistik faoliyatini tahlil qilarkan, uning oktyabr inqilobini quvonch bilan kutib olganligini va unga sidqidildan xizmat qilganini maqolalari tahlili orqali ta'kidlaydi.

«Abdulla Qodiriy Oktyabr inqilobini shu tarzda kutib oldi, undagi sotsializmga, bolsheviklarga, Lenin ishiga e'tiqod shu tariqa shakllandi, sho'ro hokimiyatining dastlabki paytlaridanoq sidqidildan uning xizmatida bo'ldi». Munaqqid bu fikrlarini Qodiriyning tarjimai holiga tayanib, uning «Ro'sta», «Ishtirokuyun», «Qizil bayroq», «Inqilob», «Kommunist» va ayniqsa, «Mushtum» jurnalidagi faoliyati davomida e'lon etgan maqolalari asosida dalillashga urinadi. Jumladan, kitobdagi yozuvchining xurofatga qarshi yozilgan maqolalari tahlili shu jihatdan xarakterlidir.

Biroq ta'kidlash joizki, «Qodiriy bog'i» risolasida munaqqidning o'zini-o'zi inkor etgan o'rinlar ham bor. Xususan, 20-yillarning birinchi choragida yaratilgan «O'tgan kunlar»ning estetik printsiplariga doir kuzatishlarida U.Normatov bu roman sho'ro davri fojealarini fosh etuvchi, milliy mustaqillik g'oyalarini

ifodalovchi asar ekanligini ta'kidlab, Yusufbek Hojining o'g'li Otabekka qarata aytgan xitobnomasidan kattagina ko'chirma keltirib, o'z fikrini asoslashga harakat qiladi. Munaqqid hatto risolasining mazkur bobini «Istiqlol qayg'usi» deb nomlaydi. U «Mehrobdan chayon» romanini ham xuddi shu nuqtai nazaridan talqin etadi. Ushbu talqinlardan go'yo yozuvchi bir vaqtning o'zida ham inqilobni olqishlagan, unga xizmat qilgan (maqolalari bilan), ham istiqlol uchun kurash olib borgan (romanlari bilan), degan xulosa kelib chiqadi. Albatta, masalaga bunday yondashish metodologik jihatdan o'zini oqlamaydi. Nazarimizda, munaqqid ushbu kuzatishlarida davr va yozuvchi dunyoqarashidagi ziddiyatli jihatlarga urg'u berganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. U. Normatov risolasining xotimasi- «Fig'on» deb nomlanuvchi bobida Xabibulla Qodiriyning «Qodiriyning so'nggi kunlari» xotira-qissasi va u haqda aytilgan fikr-mulohazalarga munosabat bildirgan. Jumladan, xotira qissaga kiritilgan arxiv hujjatlarida nomlari zikr etilgan ko'plab taniqli ijodkorlarni obro'sizlantiruvchi fikrlarga e'tiroz bildirgan ayrim munaqqidlar bilan munozaraga kirishadi. Provardida munaqqid barcha tarixiy faktlarni ochiq-oydin, xolis, oshkoralik bilan baholash payti keldi, shu bois, turli xil mulohazalardan cho'chimasdan bunday faktlarni e'lon qilish zarur, deb hisoblaydi.

Muallifning xolislikka, oshkoralikka chorlaganini qo'llab quvvatlagan holda, xotira-qissadagi ko'pgina mulohazalar subektiv qarashlar natijasi ekanligi haqidagi A. Rasulov fikrlari asosli ekanligini ta'kidlash zarur. Chunonchi, H.Olimjon va Zulfiyaning to'yi munosabati bilan ota-bola o'rtasidagi muloqat, xususan, Abdulla Qodiriyning aytgan gaplari nafaqat H.Olimjon va Zulfiya siymosiga, balki Qodiriydek buyuk adib siymosiga ham soya soladi. Zulfiya esa H.Olimjon vafotidan keyin sevgi va sadoqat timsoli sifatida xalqimiz qalbiga muhrlanib qoldi. Buning zamirida qandaydir targ'ibotlar emas, balki Zulfiyaning o'zbek xalqi ko'z o'ngida bosib o'tgan hayot va ijod yo'li, umrining mazmun-mohiyati yotibdi. Shu bois, uning siymosiga soya tashlashga hech kimning ma'naviy haqqi yo'q. «Qodiriyning so'nggi kunlari» qissasida aks etgan davr fojealari, buyuk

yozuvchining achchiq qismati va sargardon kezgan o'g'ilning fojeali obrazi qodiriyshunoslikning kemtik joylarini to'ldirishga xizmat qilsa-da, yuqorda ko'rsatilganidek, unda o'rinsiz ta'kid va talqinlar ham uchrashini inkor etib bo'lmaydi. Xullas, ayrim e'tirozli o'rinlariga qaramay, hozirjavob munaqqid U. Normatovning «Qodiriy bog'i» kitobi yangicha metodologik tamoyillar asosida qodiriyshunoslikda yangi qarashlarni o'zida aks ettirgan, yangicha tanqid tafakkurining namunasi sifatida maydonga kelgan tadqiqotlardan biridir. SHo'ro davri qodiriyshunosligiga munosib hissa qo'shgan olimlardan yana biri Ahmad Alievdir. U ham, boshqa qodiriyshunoslar singari, sho'ro davrida Qodiriy ijodini baholashda muayyan cheklanishlarga yo'l qo'yilganini e'tirof etib, istiqlol davrida Qodiriy hayoti va ijodi haqida yangicha kontseptsiya va yangicha nuqtai nazarga asoslangan maqolalar chop ettirdi. Shuningdek, «Istiqlol va adabiy meros» «Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat» nomli kitoblarida Qodiriy hayoti va ijodi haqida ham fikr yuritiladi.

Muallif bir o'rinda Qodiriy ijodini o'rganishga 50-yillarning o'rtalaridan kirishganini, 50-yillarning oxirlaridan maqolalar chop ettira boshlaganini va 1967 yili «Abdulla Qodiriy» nomli adabiy-tanqidiy ocherkini nashr qildirganini aytarkan, jumladan, bir masalaga e'tiborni qaratadi. Olim garchi o'sha davrda ham Qodiriy ijodi haqida iliq fikrlar aytgan bo'lsa-da, zamona zayli bilan tanqidiy mulohazalarni ham aytishga majbur bo'lganini, bunga sho'ro mafkurasi va milliy uyg'onish davri adiblar ijodi targ'ibotiga qarshi turgan kuchlarning tazyiqi sabab bo'lganini ta'kidlab, mustaqillikdan keyin yangicha qarashlar uchun keng imkoniyat yaratilganligini mamnuniyat bilan e'tirof etadi va o'zining chop etilgan maqolalarida yangicha qarashlarni ilgari surganligini aytadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib munaqqidning «Istiqlol va adabiy meros» nomli qo'llanmasiga nazar tashlasak, unda Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Behbudiy, G'ozi Yunus, Elbek, Botu kabi ijodkorlar asarlari yangicha tamoyillar asosida baholanganiga guvoh bo'lamiz.

A. Aliev har ikkala kitobida ham A. Qodiriy ijodiga yuksak baho beradi, uning XX asr o'zbek adabiyotida realistik romanchilikni boshlab berganini ta'kidlaydi. Adib ijodini tahlil va talqin etishda munaqqid uning adabiy-estetik qarashlaridagi yetakchi tamoyillarga, hayotiylik, xaqqoniylik, milliylik tildan foydalanish mahorati singari mezonlarga urg'u beradi. Biroq ayni damda U. Normatov kabi Qodiriy oktyabr inqilobini to'g'ri qabul qildi va 20-yillari ijodi bilan sho'ro davriga xizmat qildi, degan fikrni ilgari suradi: «U oktyabr inqilobi g'alabalariga ishondi va uni har tomonlama himoya qilish va saqlab qolishda qatnashdi.

A.Qodiriy sira ikkilanmay butun ongli hayotini, ijodiy faoliyatini, talanti, qobiliyatini barcha qiyinchiliklarga chidagan holda yangi davr adabiyotini, yangi davr madaniyatini yaratishga bag'ishlagan eng ilg'or, eng yetuk ziyolilarimizdan edi» (60-bet). Ushbu fikrdan kelib chiqadigan xulosa shuki, demak, Qodiriy oktyabr to'ntarishidan keyingi davr adabiyotini yaratishga xizmat qilgan ijodkorlardan biri. Darvoqe, A. Aliev ham U.Normatov singari «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romani tahlilida bu asarlarning yetakchi kontseptsiyasi istiqlol g'oyalarini ilgari surganida, deb hisoblaydi. Jumladan, munaqqid «Ma'naviyat, qadriyat, badiiyat» nomli kitobida Otabek va Yusufbek hoji obrazlariga to'xtalib, shunday deb yozadi: «Otabek, Yusufbek hojilar umr bo'yi vatan deb uning ravnaqiga to'siq bo'ladigan yovuzlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradilar, shu yuksak qiyofalari bilan sofdil kitobxonni ergashtiradilar... Ularning butun xatti-harakatlari milliy istiqlolga borib taqalaveradi...».

Ushbu mulohazadan ayon bo'layotirki, munaqqid talqinida A. Qodiriy bir vaqtning o'zida oktyabr inqilobi g'oyalarini qabul qilgan, unga sidqidildan xizmat qilgan va o'sha paytda yaratgan romanlarida esa sho'ro siyosatiga qarshi kurash olib borib istiqlol g'oyalarini ilgari surgan. Bir qator qodiriyshunoslarning so'nggi davrda yaratgan tadqiqotlarida mana shu ikki xil, qarama-qarshi fikrlarning mavjudligi adabiy tanqid metodologiyasi tamoyillarining, yangicha tanqid tafakkurining yuzaga kelishidagi murakkabliklardan, ziddiyatlardan dalolat beradi,

tanqidning o'zini qayta qurishi osonlik bilan yuzaga kelmaydigan jarayon ekanini ko'rsatadi.

A.Qodiriyning hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan S.Mirvalievning «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasi ham qodiriyshunoslikdagi e'tiborli ishlardan bo'ldi.

Ma'lumki, S.Mirvaliev 60-yillarda chop etilgan «O'zbek romani» nomli kitobida ham Qodiriy romanlarini ancha keng tahlil qilgan edi. Bu kitobda ham o'sha davr adabiyotshunosligiga xos bo'lgan ayrim cheklanganliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, muallif «O'tgan kunlar» romanida yozuvchi mehnatkash xalq vakillarini yetakchi qahramon qilib olmaganini, tarixni sinfiylik printsplari asosida yoritmaginini, o'tmishni ideallashtirganini aytadi.

«Abdulla Qodiriy» monografiyasida muallif sho'ro davridagi kamchiliklar haqida fikr yuritib, adabiyotshunoslikda badiiy asarga siyosiy-mafkuraviy yo'sinda yondashish yetakchilik qilganini ta'kidlaydi va istiqlol davriga kelib bu salbiy oqibatlar barham topganligini, badiiy asarga xolis yondashish imkoniyati paydo bo'lganligini, binobarin, adib ijodiga ob'ektiv baho berish niyatida ekanini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ushbu tadqiqotda u sho'ro davri adabiyotshunosligiga xos bo'lgan qarashlar «jangi»ni chetlab o'tilgan, matnni tushunib talqin qilishga harakat qilgan. Bir necha bobdan tashkil topgan ushbu monografiyada Qodiriyning oilaviy shajarasi, avlodlari, ijodga kirib kelish vaqtidagi shart-sharoit, ijodining ilk namunalari- she'lari tahlili, hajviy asarlarida kulgi yaratish mahorati muxtasar tahlil etiladi. Muallif yozgan ma'lumotlarning aksariyati kitobxonga ma'lum bo'lsa-da, Abdulla Qodiriy she'rlarning davr bilan hamohangligi, jadidchilik harakati bilan uyg'unligi mazkur ishning originalligini ta'minlagan. Qolaversa, adibning nasriy asarlaridagi, jumladan, romanlaridagi she'rlarning tahlili alohida ahamiyatga molik. Munaqqid bu she'rlarni mumtoz adabiyot an'analari bilan qiyoslab, ijodkorning poetik mahoratini kashf qilishga intilganki, bu ham tadqiqotning yutuqlaridandir.

S. Mirvaliev kitobida Qodiriyning romanlari tahliliga keng o'rin ajratilgan. Xususan, U «O'tgan kunlar» romanining mazmun-mohiyatiga to'xtalib: «Binobarin, «O'tgan kunlar» epik janr turiga ko'ra ham ijtimoiy-tarixiy, ham ishqiy romandir», – deb asarning ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik qimmatiga birday baho beradi. Demak, munaqqid talqinida ijtimoiy tahlil ham, badiiy tahlilga ham e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.

Romanning g'oyaviy motivini tarixiylik va ijtimoiylik mezonlari asosida tahlil qilarkan, S. Mirvaliev asarning ijtimoiy mazmunini belgilaydigan g'oyamilliy istiqlol uchun kurashning yetila boshlaganligini ko'rsatishdan iboratdir, degan xulosani beradi.

Chunonchi, tadqiqotdagi tahlil, obrazlar tasnifi, qahramonlar nutqidan keltirilgan parchalar-barchasi shu fikrni asoslashga xizmat qildirilgan. Romanning badiiy-estetik qimmatini belgilashda munaqqid masalaga original yondashgan.. Bunda unga asar matni asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqotchi romandagi alohida tasvirlar, iboralar, manzaralarning o'ziga xosligini ta'kidlash orqali ramziy mazmunni ochishga uringaniga guvohi bo'lamiz. Xususan, romanning «...1264 hijriya...» deb boshlanuvchi ilk jumlasini bilan asar xotimasidagi jummalarning qiyoslash, Otabekning «Boburnoma» kitobini o'qishi, Kumush ko'z yorayotganda Otabekni tushida ko'rishi kabi detallar, holatlar singdirilgan ramziy mazmunni ochishga harakat qilgan. Darhaqiqat, bu borada muallif keyingi davr tanqidchiligida «O'tgan kunlar» romanining yangicha talqinini berishga urinayotgan munaqqidlar bilan hamqadamdir.

Munaqqid «Mehrobdan chayon» va «Obid ketmon» asarlarini ham ana shu mezonlar asosida talqin etadi. Kitobning yana bir qimmatli jihati Qodiriy hayoti va ijodiga oid muhim sanalar, Qodiriy shajarasi, adibning qizi Adiba Abdullaevaning maktubi qo'lyozmasi va Qodiriy qatl etilgan joy xaritasining chop etilganda, kitobxonlarga yozuvchi hayoti va ijodi haqida to'liqroq ma'lumot olish imkoniyati yaratilganida.

Istiqlol davri qodiriyshunosligiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan

yosh adabiyotshunoslardan biri Bahodir Karimov so'nggi o'n yil mobaynida mazkur mavzuga bag'ishlab bir necha maqola e'lon qildi, risolalar chop ettirdi. «XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi» (Qodiriyshunoslik misolida, 2002 yil) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi esa, o'zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo'lib Qodiriyshunoslik tarixini yaxlit yangicha metodologik tamoyillar asosida tahlil va talqin etdi. B.Karimovning bu sohaga qo'shgan muhim hissasi shundaki, u so'nggi davr tanqidchiligida yuzagaga kela boshlagan yangicha metodologik yondashuv–germinevtikaning o'zbek adabiyotshunoslari faoliyatidagi o'rnini, mavjudlik darajasini ilmiy tavsiflab berdi. Uning bu ishi yanigilanayotgan adabiy tanqid metodologik tamoyillarining muhim yo'nalishlarini belgilashga xizmat qildi. B. Karimovning Qodiriy asarlari talqiniga bag'ishlangan maqolalariga xos eng muhim xususiyatlardan biri yangicha talqin tafakkurini o'zida mujassamlashtirganligida. Badiiy matnni yangicha tushunish va yangicha talqin etish uning kuzatishlariga xos xususiyatlaridan biridir. «Qodiriy qadri» (2003) nomli risolasiga jamlangan maqolalarida ayni shu xususiyat ustuvor. Boshqa adabiyotshunoslardan farqli ravishda B.Karimov yozuvchi X.Sultonov va adabiyotshunos M. Qarshiboev singari «O'tgan kunlar» romanini, avvalo, sevgi-muhabbat mavzusida bitilgan asar, deb qaraydi hamda Otabek va Kumush muhabbati fojealarini-taqdiri azal tushunchasi bilan bog'lab tahlil qiladi. Munaqqid «O'tgan kunlar» romani matnidagi qodiriyshunoslar ko'pdan e'tibor bermagan «taqdir» tushunchasi bilan bog'liq voqelik va ruhiyat qirralarini asardan keltirilgan ko'plab misollar vositasida dalillaydi.

B.Karimovning ushbu risolaga kirgan va matbuotda e'lon qilingan maqolalarini Qodiriy ijodiga ontologik yondashuvning o'ziga xos namunalari sifatida baholash mumkin. Munaqqid asardagi matnni tutib turuvchi eng xarakterli nuqtalarini topib, olam va odam bir butunligini «taqdir hukmi» tushunchasining mohiyatiga joylay olgan.

B.Karimov bizda kam o'rganilgan xorijiy qodiriyshunoslik muammolariga

alohida z'tibor qaratgan. U o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab yaqin yillargacha xorijiy qodiriyshunoslikda yaratilgan maqola va tadqiqotlar mazmunini, mohiyatini, kontseptsiyasini, tadqiq yo'nalishlarini umumiy tarzda bo'lsada sharxlab bergan.

Munaqqidning kuzatishicha, 30-40 yillardayoq Parijda chop etilgan «Yosh turkiston», Berlinda nashr qilingan «Milliy adabiyot», «Milliy Turkiston» kabi jurnal va to'plamlarda bosilgan Isroiljon, Boymirza Hayit singarilarning maqolalarida Qodiriy ijodi tahlilga tortilgan. Amerikalik olim Eduvard Olivord «O'zbek adabiy siyosati», olmon adabiyotshunosi Niota Tun, Eden Nabi, Maykel Murfe kabi tadqiqotchilarning turli davrlarda Qodiriy ijodiga turlicha qarashlarini ifodalagan maqolalari ushbu mavzuga bag'ishlangan o'zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlari bilan qiyoslanib o'rganiladi, xorijiy qodiriyshunoslikning o'zbek adabiyotshunosligi bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlariga aniqlik kiritiladi. Xullas, ana shunday tadqiqotlar istiqlol davri qodiriyshunosligining o'ziga xos jihatlarini belgilashga imkoniyat yaratdi. Jumladan, bu davr tanqidchiligida Qodiriy biografiyasi va ijodiy laboratoriyasining hali ochilmagan sahifalariga e'tibor qaratildi va ko'plab xotiralar, maqolalar, esselar yaratildi. Ikkinchidan, sho'ro davri qodiriyshunosligi rivojiga hissa qo'shgan ko'plab munaqqidlar o'zlarining oldingi qarashlarini nazardan o'tkazib, yangicha nuqtai-nazar asosida yaratilgan tadqiqotlarini chop etdilar. Jumladan, bunday adabiyotshunoslar qatarida M.Qo'shjonov, S.Mirvaliev, A.Aliev, H.Abdusamatov, U.Normatov kabilarni tilga olish mumkin.

Uchinchidan, bu davrda yetishib chiqqan yosh munaqqidlar izlanishlarida qodiriyshunoslik masalalarida yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etila boshladi. Bu o'rinda yozuvchi X. Sultonovning adabiy-tanqidiy maqolalarini, M.Qarshiboev, B Karimov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini misol keltirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

Narmativ-huquqiy hujjatlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
5. 1997.08.29 №464-1 Ўзбекистон Республикаси Таълим тўғрисида.
6. 2. 1997.08.29 463-И-сон Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида.
7. ЎзР Қонуни Тошкент ш., 2008 йил 7 январ, ЎРҚ-139-сон Бола ҳуқуқларини кафолатлари тўғрисида.
8. 1997.08.29 №465-1 ЎзР ОМ Қарори “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби ҳақида.
9. 1997.10.06 №ПФ-1869 ЎзР През. Фармони Таълим-тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислох қилиш, баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисида.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 24 июлдаги ПФ-4456-сон “Олий малакали илмий ва педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрида”ги Фармони (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 30-сон, 346-модда).
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сон қарори.

- 12.1993.06.14 №283 ЎзР ВМ Қарори Ўзбекистон Республикасида Олий таълим сифатини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида.
- 13.1999.08.16 ЎзР ВМ Қарорига Илова умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти.
- 14.2001.07.26 №318 ЎзР ВМ Қарори Олий ўқув юртларида тўлов-контракт асосида ўқиш учун таълим кредитлари бериш тўғрисида.
- 15.2001.08.16 №343 ЎзР ВМ Қарори Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида.
- 16.Фан доктори илмий даражасини бериш тартиби тўғрисидаги, илмий унвонлар бериш тартиби тўғрисидаги, фан доктори илмий даражасини берувчи илмий кенгаш тўғрисидаги, эксперт кенгаши тўғрисидаги, малакавий имтиҳонларни ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомлар, ОАК раёсатининг 2013 йил 31 январдаги қарорлари.

17. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 18.Каримов.И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т., Ўзбекистон-2011, 440-бет.
19. Каримов И.А. Жаҳон молиявий–иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009.- 56 б.
- 20.Каримов И.А Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш контсептсияси. -Т.: Ўзбекистон, 2010.- 56 б.
21. Каримов И.А. “Ўзбекистон ХХИ асрга интилмоқда” Т. 1991 й.
22. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси” Т.2000 й.
- 23.Каримов И.А. “Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқ керак” Т.1997 й.
24. Каримов И.А. “Ўзбекистон ХХИ аср бўсағасида” Т.1998 й.
25. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон

шароитида уни баргараф этишининг йўллари ва чоралари. Т. Ўзбекистон, 2009,й.

26. Asosiy adabiyotlar:

27. Qodiriy A. “O‘tkan kunlar”, Toshkent, G‘ulom nashr., 1992 yil.
28. Karimov B. «Abdulla Qodiriy». –Т.: «Fan». 2006.
29. Karimov B. «Qodiriy qadri». – Т.: 2003.
30. Karimov B. «Adabiyot, badiiyat, abadiyat». Т.: Xotiralar, badialar, maqolalar. 2004.
31. Karimov B. «Daha go‘zal bitiklar». «Yangilanish sog‘inchi». Т.: 2004.
32. Куликова И.С. «Мантйқ ўрнига абсурд», Из-во Политической литературы. М., 1980.
33. Mirvaliev S. «Abdulla Qodiriy». «Fan» nashriyoti. – Т.: 1992.
34. Murodxonov A. «Iste‘dod jozibasi». «Fan» nashriyoti. Т.: 1992.
35. Назаров Б. «Ўзбек адабий адабиётшунослиги». Т.: «Фан» нашриёти, 1979.
36. Назаров Б. «Ўзбек совет адабий танкиди тарихи». 2 томлик, 1-2 томлар, Т.: «Фан» нашриёти, 1987.
37. Habibulla Qodiriy. Xotiralar. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashiriyoti, 1974-yil.
38. Ahmad Aliyev. Ijod va izlanishlar. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashiriyoti. Т.: 1976.
39. B. Nazarov, A. Rasulov, Sh. Ahmedova, Q. Qahramonov. o‘zbek adabiy tanqiditarixi. Toshkent “Tafakkur qanoti”. 2012-yil.
40. Ibrohim G‘ofurof, Abdulla Ismoilov. Dil kuzgusidadi qiyofa. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashiriyoti. Т.: 1982.
41. Karimboy Quromboyev. Adabiy jarayon. Ijod mas‘uliyati. Adabiy aloqalar. Cho‘lpon nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi. Т.: 2009
42. Matyoqub Qo‘shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati (“O‘tgan kunlar” romani misolida). O‘zbekiston “Fan” nashiriyoti. Т.: 1966.

43. Uzoq Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xranatop. Ilmiy-nazariy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy maqolalar. G'ofur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2015
44. I. Mirzayev. Abdulla Qodiriy. O'zbekiston "Fan" nashiriyoti. T.: 1975
45. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: Tanqid, tahlil va talqin. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashiriyoti, 2006-yil.
46. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. Toshkent "Akademnashr". 2014-yil.
47. Matyoqub Qo'shjonov. Saylanma. 2 – jildlik. 1 – jild. Adabiy portretlar. Toshkent. G'ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashiriyoti. 1982-yil
48. Normatov U. «Qodiriy bog'i». T.: «Fan» nashriyoti, T.: 1995.
49. Normatov U. «Qodiriy mo'jizasi». T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2010.
50. Нурматов М. «Танқид ва эстетика», Т.: Ғ.Ғулом номли АСН, 1976.
51. Расулов А. «Танқидчилик уфқлари». Т.: Ғ.Ғулом номли АСН, 1985
52. Rasulov A. «Tanqid, tahlil, baholash». T.: «Fan» nashriyoti, 2006.
53. Rahimjonov N. «Mustaqillik davri o'zbek she'riyati». – T.: «Fan» nashriyoti, 2007.
54. Умиров Х. «Таҳлил санъати», Ғ.Ғулом номли АСН, 1976.
55. Sharafiddinov O. «Ijodni anglash baxti». T.: 2009 453 б
56. Kadiri A. "Die Liebenden von Taschkent", Berlin, 1968, 106 - бет.
57. Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994 yil. 14 oktyabr 11 noyabr.
58. Inog'omov R. Qodiriy jahon kezadi. Sharq yulduzi. 1994 3-4 son.
59. Иззат Султон. Асарлар. Тўрт томлик, 2-том, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, Т. 1975, 355-бет.
60. O'qtoy. Turkiston adiblari vazifasi. Yosh Turkiston. 1937 yil: № 95.
61. I. Azimzoda. Utkan kunlarimiz. Yosh Turkiston. 1931 yil: № 18.
62. Bashir Z. O'zbek adabiyoti. Qozon 1929. 15 bet.
63. Edward Allworth. Uzbek Literary politics. London-Paris. 1964. P. 36-37.

64. Eden Nabu. Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbia University 1975. P. 72. 18

65. Kleinmichel Sigrid. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur Usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. 1993. Wiesbaden. F. 201

66. Internet saytlar:

67. www.ziyouz.com

68. [www. Kutubxona.com](http://www.Kutubxona.com)

69. www.ijod.uz

70. www.adabiyot.uz

71. www.pdfactory.com

72. www.fluent.ru/main_methods_05.html

73. www.catalog.alledu.ru/distans/foreign

74. www.doklad.ru/Qodiriy/doklad/view/zip-891.html

75. www.inplus.ru/edu/Jadid.html

76. www.gov.uz./Jadichilik/.html

77. www.edu.uz

78. www.ta'lim.uz

79. www.google.com. Qodiriy.html